

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TAHLIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

UMRZAQOV ISLOMJON ISROILOVICH

**TARJIMADA BADIY TASVIR VOSITALARINI QAYTA YARATISH (SHE`RIY ASARLAR
TARJIMASI MISOLIDA)**

5A120101 – Adabiyotshunoslik (Tillar va tadqiqot yo`nalishlari bo`yicha)

**Magistr akademik darajasini olish uchun
taqdim etilgan**

DISSERTATSIYA

Namangan – 2014

TARJIMADA BADIY TASVIR VOSITALARINI QAYTA YARATISH

MUNDARIJA

KIRISH.....

I BOB

JAHON ADABIYOTI TARAQQIYOTI VA TARJIMA MASALALARI

1.1. Tarjima va tarjimachilik tashvishlari.....11

1.2. Frazologizmlar – matn jilodorligini oshiruvchi vosita.....14

II BOB

TARJIMADA BADIY SAN’ATLARNI QAYTA YARATISH MUAMMOLARI

2.1. Antitezis (tazod) tarjimasi xususiyatlari.....39

2.2. O’ziga xos ibora (deoma)lar tarjimasi muammolari.....54

III BOB

TARJIMADA SHAKL VA MAZMUN MUTOSONOSIBLIGI

3.1 Badiy tarjimada shaklni qayta yaratish muammosi92

3.2. Xos so’zlarni tarjimada qayta yaratish masalasi.....

3.3. Obrazli lisoniy vositalar va ularni tarjimada qayta yaratish

XULOSA.....153

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.....12

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. XXI asr tom ma'noda mustaqil O'zbekiston Res'ublikasi uchun rivojlanish va yuksalish asri bo'lib boshlandi. Yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar bundan darakdir.

Vatanimizning chekka-chekka xududlari ham bugun zamonaviy shahar ko'rinishini olmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan namunaviy loyihadagi uy-joylar qurish dasturi shahar va qishloqlarimiz ko'rkini yanada ochib yubordi. Yoshlar uchun yaratilayotgan keng ko'lamli sharoitlar ularning iqtidorini nomoyon etishlarining asosi bo'lmoqda

Shaxsan Prezidentimiz rahnomoligida chet tillarni o'qitilishining rivojlanishi soha mutasaddilari oldiga keng qamrovli vazifalarni qo'ymoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan 2012 yil 10 dekabrda «CHet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1875 sonli qarori imzolandi.

Qarorga ko'ra, 2013-2014 o'quv yilidan boshlab O'zbekistonning barcha hududlarida chet tillarni, asosan, ingliz tilini o'rganish umumta'lim maktablarining 1-sinflaridan boshlandi. Yosh avlodning chet tillarni o'rganishga bo'lgan iqtidori va qiziqishi o'tgan bir yil davomida yaqqol ko'zga tashlandi.

Oliy o'quv yurtlarida esa ayrim maxsus fanlarni, xususan, texnik va xalqaro mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish chet tillarda olib borish rejalashtirilmoqdai. 2013-2016 yillar davomida ta'lim muassasalaridagi xorijiy tillar kabinetlari zamonaviy axborot-kommunikatsiya va o'qitishning texnik vositalari va anjomlari bilan qayta jihozlanadi¹.

Qarorda Davlat test markazi 2015/2016 o'quv yilidan boshlab esa barcha oliy ta'lim muassasalariga kirish testlari blokiga xorijiy tilni kiritish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish bo'yicha tegishli ko'rsatma berilgan. Ya'ni, abituriyentlar institut-universitetlarga kirishda chet tilidan, asosan, ingliz tilidan test to'shirishlari majburiy qilib belgilanadi.

¹ <http://kun.uz/2012/12/10/language/>

Qarorga ko'ra belgilangan tartib bo'yicha, chet tillar o'qituvchilariga ehtiyoji bo'lgan uzoq tumanlar va qishloq aholi 'unktlarida yashayotgan aholi ichidan mahalliy davlat organlarining tavsiyanomalari asosida chet tillari o'qituvchilarini tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalariga maqsadli qabulni amalga oshirishga ruxsat beriladi. Tavsiyanoma bilan o'qishga kirganlar, tavsiyanomada ko'rsatilgan ta'lim muassasasida 5 yildan kam bo'lmagan muddatda ishlab berishlari shart.

Shuningdek, qarorda chet tillar o'qituvchilari va muallimlarini moliyaviy rag'batlantirish chora-tadbirlari ham ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra, qishloq joylarda ishlaydigan chet tillar o'qituvchilarning tarif stavkalariga 30 foiz, boshqa ta'lim muassasalarida 15 foiz stavkalari miqdorida har oydagi qo'shimchalar berib boriladi. Bu borada Vazirlar maxkamasi xuzuridagi Davlat test markazi o'rta maktablar o'qituvchilari uchun maxsus malaka testlarini o'tkazdi va undan o'tgan o'qituvchilar yuqoridagi ustama xaqklarini olmoqdalar.

Qarorga ko'ra, ikkita yangi tuzilma tashkil etildi: Chet tillarni o'rganishni yanada rivojlantirish bo'yicha doimiy ishlaydigan Muvofiqlashtiruvchi kengash chet tillarni o'rganish bo'yicha ta'lim standartlari va o'quv dasturlari uchun javobgar bo'lsa, Davlat Test markazi tarkibida tashkil etilgan 12 nafar xodimdan iborat Chet tillarni bilish va egallash darajasini baholash boshqarmasi chet tili bo'yicha bilim darajasini baholash imkonini beradigan test va boshqa shu kabilarni ishlab chiqish va hakoza bilan shug'ullanmoqda.

Bundan tashqari, qarorda O'zMTRK va boshqa tegishli tashkilot hamda idoralarga ham orqali bolalar va o'smirlarni xorijiy tillarga o'rgatish bo'yicha ko'rsatuvlar tayyorlab efirga uzatilmoqda. Mustaqillik yillarida 51,7 ming nafardan ziyod chet tillari o'quvchilari, umumta'lim matkablarida, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda 5 mingdan ko'proq lingafon kabinetlari jihozlandi.

Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida ta'kidlanganidek, "Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatimizni safarbar etayotgan ekanmiz bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Agar biz bu masalada xushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga o'zi bilarchilarchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'irilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib oxir oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishi mumkin".

Yurtboshimiz o'rinli tahkidlaganlaridek: "Keyingi yillarda milliy adabiyotimizning eng yaxshi namunalarini chet tillarga tarjima qilish va shu asosda xalqimizning hayot tarzi va insoniy fazilatlarini keng namoyish etish borasida ham katta imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Lekin, afsuski, bu masalada biz hali-beri ko'zga ko'rinadigan amaliy natijalarga erisha olganimiz yo'q. Ilgari o'zbek adabiyotining namunalarini boshqa tillarga tarjima qilish asosan uchinchi til, yahni rus tili orqali amalga oshirilar edi. Bu borada qilingan katta ishlarni munosib baholagan holda, endilikda adabiyotimizning eng yetuk asarlarini bevosita ona tilimizdan g'arb va sharq tillariga tarjima qilishga qaratilgan ishlarni kuchaytirishimiz zarur"².

Insoniyat tarixini barcha bosqichlarda badiiy adabiyot san'at turlarining biri sifatida ijtimoiy taraqqiyotda katta o'rin tutib, faol rol o'ynab kelgan. Buning sababi shuki, badiiy adabiyot ijtimoiy ong shakllaridan biri ekanligidir. Adabiyotning eng asosiy vazifasi insomshunoslikdir. Haqiqatdan ham , badiiy asarda tasvirlangan har bir obraz bevosita inson yoki inson bilan bog'liq narsa va hodisalardan iboratdir. Bundan kelib chiqadigan muhim xulosalardan biri shuki, agar badiiy asarda tasvirlanmas ekan, bunday asarlar haqiqiy ma'nodagi badiiy adabiyot namunasi hisoblanmaydi.

Badiiy asardagi har bir obraz, har bir tashbex, inson, uning ruhiy olami, o'y va kechinmalari bilan bog'liq holda talqin etiladi

Turli davrda yaratilgan inson obrazi bilan, bugungi kunda yaratilgan inson obrazi o'rtasida katta tafovut bor. Ularning birida insonning umumiy darajalari ya'ni fazilatlar aks etgan bo'lsa, boshqa bir tomonda uning xatti harakati va kechinmalari juda chuqur va atroflicha aks ettirilganini ko'rishimiz mumkin.

² Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. – Б. 139

Demak, badiiy adabiyotning asosiy vazifasi, insonning vazifasi, darajasi va saviyasi ham turli davrlarda turlicha bo'ladi degan fikrga kelamiz. Insoniyatning ko'p asrlik taraqqiyoti davomida adabiyot, ayniqsa, ihlanadigan material, mavzu nuqtai nazaridan juda ko'p o'zgarishlarga duchor bo'ladi.

Tadqiqotning maqsadi asarlarda qo'llanilgan badiiy sanhatlarni tardimada qayta yaratish masalasini ilmiy tahlildan o'tkazish va tarjima jarayonining o'ziga xos jihatlarini o'rganish..

Tadqiqotning vazifasi. Dissertatsiyaning asosiy vazifalari sifatida:

- Badiiy tarjima jarayonida yuzaga keluvchi muammolarni kuzatish va o'rganish.
- Jahon adabiyotining rivojlanishida tarjimaning o'rni va ahamiyatini aniqlash .
- Turg'un birikmalar yahni frazeologizmlarning matnda tutgan o'rnini o'rganish va ularni tarjimada aks ettirish masaldasini tarjimashunoslik nuqtai nazaridan tahlil etish.
- Tilimizda mavjud badiiy sanhatlarni horijiy tillarda qayta yaratish masalalrini tahlil etish.
- Tarjimada shakl va mazmun mutonosibligiga erishishda yuzaga keladigan muammolarni o'rganish va ularni bartaraf etish yo'llarini qidirish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tarjimai to'g'risida yurtimizda bir qator yirik va fundamental tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan G.Salomov³, N.Komilov⁴, M.N.Holbekov⁵, M.Q.Baqoyeva⁶, H.Karomatov⁷, S.Olimov⁸, Z.N.Isomiddinov⁹, M.Sobirov¹⁰, R.Karimov¹¹, R.Fayzullaeva¹², S.Rustamova¹³, M.Javburiev¹⁴,

³ Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Т.: Фан, 1966. – 384 б., Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1980. – 244 б., Саломов Ғ. Адабий анъана ва бадий таржима. – Т.: Фан, 1980. – 158 б., Саломов Ғ. Таржима ташвишлари. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 190 б.

⁴ Саломов Ғ., Комилов Н. Дўстлик кўприклари. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 222 б.

⁵ Холбеков М.Н. Узбекско-французская взаимосвязия (в аспекте перевода, критики и восприятия): Дис. ... д-ра. филол. наук. – Т.: 1991. – 432 с., Холбеков М. Таржима назариясининг лингвистик тамойиллари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2010. – № 4. – Б.14-23.

⁶ Бакоева М.Қ. Англия, АҚШ адабиётидан ўзбек тилига шеърӣ таржима ва қиёсий шеършунослик муаммолари: Филол. фан. д-ри ... дис. – Т.: 2004. – 314 б.

⁷ Кароматов Ҳ. Ўзбек адабиётида “Қуръон” мавзулари: Филол. фан. д-ри ... дис. автореф. – Т.: 1992. – 46 б.

⁸ Олимов С.Ҳ. Алишер Навоӣ асарларидаги шеърӣ санъатларни таржимада қайта яратиш ва шакл бериш муаммолари: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Т.: 1985. – 26 б.

⁹ Исомиддинов З.Н. Яқин туркий тиллардан шеърӣ таржима хусусиятлари. “Манас” эпоси таржимаси мисолида: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Т.: 1991. – 24 б.

¹⁰ Собиров М. “Бобурнома” Виллур Текстон таржимасида: Филол. фан. ном. ... дис. – Т.: 2001. – 132 б.

E.Z.Ochilov¹⁵, K.J.Juraev¹⁶, Y.Nurmurodov¹⁷, A.X.Abdullajonov¹⁸, N.M. Urmonova¹⁹ va Q.Sidiqov²⁰larning tadqiqotlari shular jumlasidandir.

**Tadqiqot ob`ekti.** Tadqiqot uchun manba sifatida ayrim badiiy asarlarda qo`llanilgan badiiy sanhatlar olindi.

Tadqiqotning metodologik asosi va metodlari. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning milliy g`oya, ma`naviy qadriyatlar, ijtimoiy taraqqiyotga oid nazariy fikrlari, hozirgi zamon tarjimashunoslik ilmining yutuqlari, tajribalari, o`zbek va jahon tarjimashunos olimlarining fikr-mulohazalari dissertatsiyaning metodologik asosini tashkil etadi. Ishda asosan qiyosiy-ti`ologik usulga tayanildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Badiiy asrlarda qo`llanilgan badiiy sanhatlar va ularni xorijiy xususan ingliz tiliga tarjima qilishning o`ziga xos jihatlarini o`rganish va tarjimalarni o`zaro qiyosiy tahlil etish zamonaviy tarjimashunoslik fani uchun g`oyat zarur ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki uning ilmiy xulosalari va tadqiqot natijalaridan oliy ta`lim muassasalarida fanlarni o`qitishda tadqiqotlarda, shu sohalarga oid darslik va qo`llanmalar yaratishda, ta`limning turli bosqichlari uchun dastur, darslik va o`quv qo`llanmalari yaratishda foydali bo`ladi.

Dissertatsiyaning tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

¹¹ Каримов Р. “Бобурнома”даги шеърлар хорижий таржималарининг қиёсий таҳлили: Филол. фан. ном. ... дис. – Т.: 2003. – 128 б.

¹² Файзуллаева Р. Бадий таржимада миллий хосликни ифодалаш муаммосига доир: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Т.: 1972. – 22 б.

¹³ Рустамова С.А. Махмуд Кошғарий луғатининг лексикографик хусусиятлари. Ф.ф.н. илмий даражаси олиш учун ёзилган дисс. Т.: 1998

¹⁴ Жавбўриев М. Воссоздание национального характера и исторического колорита в художественном переводе: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т.: 1991. – 20 с.

¹⁵ Очилов Э. Рубоий таржимасида шакл ва мазмун бирлиги: Филол. фан. ном. ... дисс. – Т.: 1994. – 134 б.

¹⁶ Жўраев К.Ж. Шеър таржималарни адабий ва фольклор алоқалари йўриғида қиёсий ўрганиш: Филол. фан. док. ... дис. автореф. – Т.: 1987. – 34 б.

¹⁷ Нурмуродов Й. Ўзбек фольклорини ўрганиш тарихи ва уни олмон тилига илмий-адабий таржима қилиш муаммолари: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Т.: 1983. –19 б.

¹⁸ Абдуллажонов А.Х. Навоий бадийятини немисча таржималарда қайта яратиш ва табдил этиш: Филол. фан. ном. ... дис. – Т.: 1998. – 144 б.

¹⁹ Ўрманова Н.М. Таржимада тарихий-архаик лексикани акс эттириш принциплари ва таржима аниқлиги (ўзбек классик адабиётидан француз тилига қилинган таржималар таҳлили асосида): Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Т.: 2008. – 26 б.

²⁰ Сидиков Қ. “Қутадғу билиг” тўртликларининг инглизча бадий таржима хусусиятлари. Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Т.: 2010. – 26 б.

I BOB

JAHON ADABIYOTI TARAQQIYOTI VA TARJIMA MASALALARI

1.1. Tarjima va tarjimachilik tashvishlari

“Tarjima – bir tildagi matinni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Tarjima millatlar aro muloqotning eng muhim ko‘rinishi. Asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima, va boshqa turlarga ajratiladi. Asl nusxani aks ettirish tarziga ko‘ra tafsil, tadbil, sharh kabi ko‘rinishlarga ham ega bo‘lishi mumkin. Tarjima qadimgi davrlarda, turli qabilalarga mansub kishilar orasidagi o‘zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. Tilmochlik deb ataladigan bu og‘zaki turi hozirda ham saqlangan”²¹.

Tarjima – murakkab jarayon va ma‘suliyatli ishdir. Suniy intellekt texnologiyalariga asoslangan avtomatik tarjima tizimlari paydo bo‘lib borishiga qaramay tarjima har doim ijodiy ish bo‘lib kelgan va shundayligicha qoladi. Agar kishi tarjima haqidagi zaruriy ma‘lumotlarning loaqal minimumidan boxabar bo‘lsa, tarjima oldida turgan vazifa yechimini yengillatishi mumkin, zero ushbu minimum tarjimonga vazifani to‘liq anglab yetish, tarjima qila olishiga doir real qobiliyatini to‘g‘ri belgilash imkoniyatini beradi. Buning uchun professional tarjimonlarda shakllangan ko‘nikma va usullarni o‘zlashtirish, shuningdek, tarjima byurolari xizmatlaridan unumli foydalanish darkor. Materialni bayon etish uslubi, yo‘sini, shakli va tarzi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

“Tarjimaning asliyatga shaklan va mazmunan monand tarzda yaratilishining birdan-bir sharti tarjimonning o‘z tilida asliymonand lisoniy vositalar tanlab istefoda etishidadir”²².

Mohir tarjimonlarning mehnati tufayli jahonning buyuk shoir va yozuvchilari tomonidan yaratilgan asarlardan ajdodlarimiz huzur qilib kelganlar, hozir esa o‘zimiz ham farzandlarimiz bilan birgalikda bahramand bo‘lib kelmoqdamiz. Muayyan ixtisoslikka doir ma‘lumotga va yillar davomida to‘planadigan tajribaga ega bo‘lmay turib, tilga oid ma‘lumoti bo‘lmagan kishi, chet tilini yaxshi bilsa ham hech qachon yaxshi tarjimon bo‘la olmaydi. U yoki bu

²¹ “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашрети Тошкент 2004, 8-том, 272 б.

²² Tarjima nazariyasi asoslari Kudrat Musaev Toshkent 2005 68- б.

darajada aqlli va dono kishilarning ma'lum bir matnni «Hech bir qiyin joyi yo'q», - deb bilib, tarjima qilishga urinishganlariga, biroq asliyatning birinchi sahifasini ochishlari bilan faqat professional tarjimon hal eta oladigan muammolar bilan to'qnash kelganlariga, o'z malakalari yetishmasliklariga iqror bo'lib, tarjimoni chetga surib qo'yishganlariga hammamiz ham guvoh bo'lganmiz desam lof qilmagan bo'laman. Nima uchun shunday bo'ladi? Chunki professional tarjimon nafaqat chet tilini, balki ona tilida to'g'ri so'zlash va yozishni yaxshi biladi, u so'z boyligiga ega bo'libgina qolmay, ushbu boylikdan to'g'ri va mohirona foydalanishni biladi, muayyan kishining tarjima qilinishi kerak bo'lgan nutqini tarjima tilida talab darajasida bayon eta oladi. Axir ko'p hollarda xorijliklarning jonli tili adabiy bo'lmagan o'zbek tiliga emas, balki kitob tiliga tarjima qilinadi. Kishining o'z ixtisosligiga oid bilimlari, agar u tarjimon sifatida tayyorgarlikdan o'tib, yetarlicha katta tajriba to'plasa, tegishli matnlarni tarjima qila olishiga omil bo'ladi. Bugungi kunda Butun jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi kabi xalqaro tashkilotlar va ko'plab yirik xorijiy firmalar tarjima (asosan og'zaki tarjimaning tadrijiy va sinxron turlari) yuqori sifatga ega bo'lishini talab qilmoqdalar. Bu esa, o'z navbatida, tarjimonga yuqori martabalarga ko'tarilish, boshqa kasblarga nisbatan olganda ko'proq yurtlarga borish, ko'p narsalarni ko'rish, doimo ko'p haq to'lanadigan yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishish imkoniyatini beradi. Biroq, mashhur Jeneva tarjimonlar maktabi asoschilarining «Xalqaro konferentsiyalarda tarjimonga tarjima qilgani uchun emas, chiroyli gapirgani uchun haq to'lanadi», - degan purmano so'zlarini unutmaslik lozim. Bu so'zlar zahirida esa kishi uchun nurli istiqbol va qayoqqa intilish kerakligi ayon ko'rinadi. Tarjimonlik kasbi azaldan eng nufuzli va zaruriy kasblardan biri sifatida e'tirof etib kelingan. Birinchi tarjimonlar qadimgi Misrda paydo bo'lganlar va o'sha uzoq zamonlardan e'tiboran obro'li odamlar qatoriga kiritilganlar. Napoleon Bonapart «Ikkita tilni bilgan askar ikki nafar jangchi o'rnini bosadi», - deb takidlab o'tgan²³.

²³ Зокиров Д. Таржима санъати ва муаммолари Т.: 2009 Б. 8

“Tarjimaning asl nusxaga sub’ektiv, xolis bo’lmagan munosabati asl nusxaga, beixtiyor, o’zgacha ma’no berib qo’yishi, yo bo’lmasa uni ko’ra bila turib siyqalashtirishi mumkin, bularning hammasi shunga olib keladiki, asarga nomaqbul, yani aslida bo’lmagan mazmun o’rniga o’zgacha ma’no berib yuboradi”²⁴.

Faoliyatlarining turiga ko’ra tarjimonlar og’zaki va yozma tarjimonlarga bo’linadi. Tarjima turlari bir-biridan kuchli farq qiluvchi sohalar bo’lib, SHarqiy Yevropa tillarida ikkita har xil kasb sifatida, misol uchun inglizlarda og’zaki tarjimon inter’reter, yozma tarjimon esa translator deb ko’rsatiladi.

Birinchi guruhga mansub tarjimonlar, o’z navbatida, sinxron va tadrijiy tarjimonlarga ajratiladilar. Ikkinchi guruhga mansub tarjimonlar esa – texnik va badiiy adabiyot tarjimonlariga bo’linadi. Kundalik turmush nuqtai nazaridan qaragan aksariyat odamlar «Ikki tilni yaxshi bilgan har qanday kishi bir tilni ikkinchisiga o’gira oladi», - deb o’ylaydilar. Afsuski, bu fikr faqat oddiy hayotiy vaziyatdagi matnlar tarjimasiga, misol uchun kechki ovqat uchun kerakli taomlarga og’zaki buyurtma berish yoki uchrashuv vaqtini belgilab telegramma yuborish zarur bo’lgan holatlarga taalluqlidir. Bunday paytda ko’pchilik tegishli jummalarni tarjimonsiz ham tarjima qilishi mumkin. Biroq, asliyatning nafaqat umumiy mazmunini, balki barcha tafsilotlarini to’la-to’kis tushunib yetish, shuningdek, o’zbek tilini mukammal bilishni talab qiladigan katta hajmli badiiy, yuridik, texnik yoki tibbiyot sohasiga oid matnlar bilan bog’liq ishlar hozircha professional tarjimonlar vakolatiga kiradigan ishligicha qolmoqda.

Og’zaki tarjimonlar yozma tarjimonlarning yoki texnik adabiyot tarjimonlari badiiy adabiyot tarjimonlarining ishini bajara olishlari haqidagi fikr-mulohazalar ham uydirmadir. Muayyan bir mavzuga mansub tarjima boshqa mavzuga oid tarjimaga nisbatan oson kechadi, bir mavzuni tarjima qilgan har qanday tarjimon boshqa mavzuni ham tarjima qila oladi deyish ham noto’g’ridir. Turli ixtisosliklarga mansub shifokorlarni darajalarga ajratish biror ma’no ifodalamaganligi kabi tarjimonlarni darajalar bilan farqlash ham shunchalik

²⁴ А.В.Фёдоров. Основы общей теории перевода (лингвистический очерк). Изд-во. «Высшая школа», М., 1968, стр. 155-157.

behuda. “Nevrolog urologga nisbatan malakali shifokor deb biror-bir kishi davo qilmasa kerak. Tish kanaliga plomba solish iltimosi kardiologni qanday mushkul ahvolga solib qo’ysa, radiohavaskorlik darsligini tarjima qilib berish iltimosini eshitgan «Hamlet»ning tarjimoni rahmatli Cho’lpon ham shunday ahvolga tushib qolgan bo’lar edi. Ayni vaqtda radiotexnikaga oid mavzular tarjimoni «Gamlet»ni tarjima qila olishi amri maholdir. Agar tadrijiy tarjimonlar notiqning besh daqiqali nutqini yodida saqlab, boshqa tilda to’la-to’kis bayon eta bilish qobiliyatlari bilan sinxron tarjimonlarni tez-tez hayratga solib tursalar, sinxron tarjimonlarning notiq bilan barobar so’zlab borish qobiliyatlari oldida qolgan tarjimonlarning qoyil qolishi muqarrardir»²⁵. Yuqorida zikr etilganday og’zaki tarjima sinxron va tadrijiy turlarga bo’linadi. Aksariyat buyurtmachilar har qanday og’zaki tarjimani sinxron tarjima deb atab adashadilar. Aslida esa sinxron tarjima og’zaki tarjimaning maxsus, juda murakkab va qimmat turi sanaladi. Tadrijiy tarjimada nutq portsiyalarga bo’linib tarjima qilinadi, yani: gapirayotgan odam jumlani yoki nutqining muayyan bir qismini talaffuz etgach, tarjimon uning gapini tarjima qilib bo’lganiga qadar gapirishdan to’xtaydi, so’ng so’zini yana davom etadi. Tarjimaning Ushbu turi ish yuzasidan olib boriladigan muzokaralar, turli texnik montajlar, shahar bo’ylab ekskursiya kabi tadbirlar, bir so’z bilan aytganda – muloqot vaqti u qadar cheklanmagan, tomonlar fikr almashadigan vaziyatga ko’proq to’g’ri keladi. Sinxron tarjima esa o’z nomidan ko’rinib turganday, notiqning nutq o’qish jarayoni bilan sinxron kechadi, yani: notiqning nutqi, tarjima qilinishi uchun, biror daqiqaga bo’lsin tinmaydi, tarjimon ham uzluksiz gapiradi. SHunga muvofiq, notiq bilan tarjimonning ovozlari qo’shib ketmaslik maqsadida sinxron tarjima uchun qimmat turadigan maxsus asbob-uskuna va jihozlar qo’llaniladi (ikki nafar tarjimon kabinada o’tirishadi va bittasining ovozi quloqlarga taqiladigan radiokarnaychalar orqali tinglovchilarga translyatsiya qilinadi). Tarjimaning ushbu turi oliy darajada o’tkaziladigan uchrashuvlar, konferentsiyalar, simpoziumlar va shu kabi rasmiy tadbirlarda qo’llaniladi. Nutqni tarjima qilish va sinxronligini tahminlash uchun sinxron tarjimon notiqning yarim

²⁵ Зокиров Д. Таржима санъати ва муаммолари Т.: 2009 Б. 11

daqiqa oldin aytgan gapini mikrofondagi talaffuz etib, bir vaqtning o'zida qulog'iga taqilgan radiokarnaycha orqali notiq so'zlarini tinglab boradi. Bu ish tarjimondan zo'r g'ayrat va diqqat-e'tiborli bo'lishni talab qilishi bois oson kechmaydi, shuning uchun ham kabinada ikki nafar tarjimon o'tirib, har yarim soatda bir-birini almashtirib boradi (aks holda yolg'iz tarjimon bardoshi pand beradi). Sinxron tarjima – juda murakkab, yuqori malaka talab qiladigan ish bo'lib, uni juda oz, sinxron tarjimon deb ataladigan mutaxassislar bajara oladi xolos. Bunday tarjimonlar soni doimo oz bo'lib kelgan va ozligicha qoladi.

1.2. Frazelogizmlar – matn jilodorligini oshiruvchi vosita

Frazelogiya (yun. prasis — ifoda, ibora va ...logiya) — 1) tilshunoslikning tilning frazeologik tarkibini (Frazelogizm) uning hozirgi holatida va tarixiy taraqqiyotida tekshiruvchi bo'limi; 2) muayyan tildagi frazeologizmlar majmui²⁶.

Tilshunoslik bo'limi sifatidagi Frazelogizmning asosiy diqqat e'tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o'rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Frazelogizmning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan (ya'ni avvaldan tayyor bo'lmagan) so'z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir. Idioma frazeologizmlar, frazeologik birikmalar va barqaror jumlar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) o'rtasidagi muayyan tafovutlarga qarab ko'plab tadqiqotchilar Frazelogizmni 2 xil: tor va keng ma'noda tushunadilar. Uni keng ma'noda tushunilganda, F. doirasiga maqol va matallar, folklorga xos barqaror jumlar, ba'zi muloqot shakllari (salomlashish, xayrlashish jumlari) ham kiritiladi. Lekin bu masala, ya'ni Frazelogizmni keng ma'noda tushunish masalasi hanuz munozarali bo'lib qolmoqda.

Frazelogizmning asosiy vazifalari yoki masalalari: frazeologik tarkibning izchilligini aniqlash va shu munosabat bilan frazeologizmning belgi(lik) xususiyatini o'rganish; frazeologizmlar omonimiyasi, sinonimiyasi, antonimiyasi, polisemiyasi va variantdorligini tavsiflash; frazeologizmlar tarkibida qo'llanuvchi so'zlar va ularga xos ma'nolarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash; frazeologizmlarning so'z turkumlari bilan o'zaro munosabatlarini oydinlashtirish; ularning sintaktik rolini aniqlash; frazeologik birliklar tarkibida so'zlarning yangi ma'nolari hosil bo'lishini o'rganish va boshqalar. Frazelogizm frazeologik birliklarni ajratish prinsiplarini, ularni o'rganish, tasniflash va lug'atlarda tavsiflash metodlarini ishlab chiqadi. Frazelogizmda ishlab chiqilgan o'ziga xos, xilma-xil metodlar asosida tilning frazeologik tarkibi turlicha: strukturesemantic, grammatik,

²⁶ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Frazelogiya>

vazifaviy uslubiy asoslarga ko'ra tasnif etiladi. Strukturesemantic tasnif prinsipi asosiy hisoblanadi.

Frazeologizm tilshunoslikning mustaqil tarmog'i sifatida 20-asrning 40-yillarida rus tilshunosligida paydo bo'lgan. Uning dastlabki shakllanishiga rus olimlari A.A.Potebnya, I. I. Sreznevskiy, A. A. Shaxmatov asarlarida asos solingan bo'lsa, barqaror (turg'un) so'z birikmalarini alohida tilshunoslik bo'limi — Frazeologizm o'rganish masalasi 20—40-yillardagi o'quvmetodik adabiyotlarda — Ye.D.Polivanov, S. Abakumov, L. A. Bulaxovskiy asarlarida ko'tarib chiqilgan. G'arbiy Yevropa va Amerika tilshunosligida Frazeologizm tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida ajratilmaydi.

O'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar o'tgan asrning 50-yillaridan boshlangan. Shu kungacha frazeologizmlar turli jihatlardan o'rganilgan (Sh. Rahmatullayev, B. Yo'ldoshev, A. Mamatov va boshqalar), Frazeologizm bo'yicha bir necha lug'atlar tuzilgan (Sh. Rahmatullayev, M. Sodiqova), yozuvchilardan Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Oydin, Said Ahmad asarlarining frazeologik tarkibi tadqiq etilgan. 70—80-yillarda SamDU qoshida frazeologik tadqiqotlarni muvofiqlashtiruvchi va maxsus to'plamlar chiqaruvchi markaz faoliyat ko'rsatgan.

Ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi. Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar²⁷:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kirishlik;
2. Ma'no butunligi;
3. Tuzilish va tarkibining barqarorligi.

Barqaror birikmalarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi paremiologiya (lotincha parema "barqaror", "logos" ta'limot), barqaror birikmalar lug'atini tuzish muammolarini o'rganuvchi bo'lim esa paremiografiya sanaladi. Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi, tarkibiy qismlarining barqarorligi

²⁷ <http://onatili.uz/barqaror-birikmalar-tasnifi/>

belgisiga ko'ra umumiylikni tashkil etsa ham, ma'no butunligi nuqtai nazaridan turlichadir.

Shunga ko'ra barqaror birikmalar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- 1) Frazologizmlar.
- 2) Maqol va matallar.
- 3) Aforizmlar.

forizm – (grekcha) chuqur ma'noli, qisqa, ixcham ibora, hikmatli so'z. Masalan, Navoiy aforizmlari.

Barqaror birikmalarning bir guruhi tarkibidagi so'zlar ma'no jihatdan uyg'unlashib, mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltiradi va ko'pincha mazmunan bir leksemaga teng keladi va ko'chma ma'noda ishlatiladi. Masalan, qulog'i ding bo'lmoq – hushyor bo'lmoq, qovog'i osilmoq – xafa bo'lmoq, og'zining tanobi qochmoq – quvonmoq kabi.

Ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil to'gan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko'chma ma'nodagi barqaror birikmalarga **frazologizmlar** deyiladi. Frazologizmlarga tarkibida uning bir bo'lagi vazifasida keladi. Frazologizmni tashkil etgan so'zlar frazeologizmning faqat ichki uzvlari sanaladi. Gapning boshqa bo'laklari bilan yaxlit, bir butun holda munosabatga kirishadi. Masalan, Rais daladagi hosilni ko'rib boshi osmonga yetdi. Bu gapdagi boshi osmonga yetdi qismi butun holda kesim vazifasida keladi.

Frazologik birlik sifatida **ibora** atamasi ham ishlatiladi. Ikki va undan ortiq so'zdan tarkib topgan va yaxlit bir ko'chma ma'no ifodalaydigan, ta'sirchanlikka ega bo'lgan til birligi **ibora (frazologik birlik)** deyiladi: qo'y og'zidan cho'p olmagan (yuvosh), kapalagi uchib ketdi (cho'chidi), og'zing qani desa qulog'ini ko'rsatadi (lapashang) va h.

Iboralar ahamiyati va qo'llanishi jihatidan, odatda, so'zga teng keladi. Iboralar ko'proq so'zlashuv nutqida va badiiy asarlarda ishlatiladi. Ulardan unumli foydalanish nutqning ta'sirchanligini oshiradi. Til fanining iboralarni o'rganadigan bo'limi **frazologiya** deb ataladi.

Iboralar o'rtasida ham o'zaro omonimlik, sinonimlik, antonimlik va paronimlik bo'lishi mumkin: **Omonim iboralar:** dam bermoq (yel haydamoq) – dam bermoq (hordiq bermoq); Ko'z yummoq (o'lmoq) – ko'z yummoq (e'tibor bermaslik); boshiga ko'tarmoq (e'zozlamoq) – boshiga ko'tarmoq (to'polon qilmoq); **sinonim iboralar:** tegirmonga tushsa butun chiqadi – suvdan quruq chiqadi; **antonim iboralar:** yerga urmoq – ko'kka ko'tarmoq; **paronim iboralar:** yuragi tars yorilib ketayozdi (sabr-chidami tugamoq) – yuragi qoq yorilayozdi (sevinganidan qattiq hayajonlanmoq).

Frazeologizmlar nutqning **ta'sirchan va bo'yoqdor** bo'lishini ta'minlaydi. Shu sababdan frazeologizmlarda uslubiy-funksional xossalar leksik birliklarga qaraganda ham keng: Ko'zining paxtasi chiqmoq, yuragi qon bo'lmoq, ichini it tirnamoq kabi frazeologizmlarda uslubiy bo'yoq kuchli. Ularni ikki yo'nalishga bo'lish mumkin:

ijobiy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan frazeologizmlar: boshini silamoq, tillaridan bol tommoq, ko'zi yashnamoq;

- salbiy: uyiga o't yoqmoq, to'ng'iz qopmoq, yer tishlamoq.

Frazeologizmlarning paydo bo'lishi inson tafakkuri bilan tilning leksik imkoniyatlari o'rtasidagi nomutanosibliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Frazeologiya – til durdonasidir. Bunda xalqning tarixi, turmushi va madaniyatining o'ziga xosliklari aks etadi. Frazeologizmlarda xalqning yorqin milliy xususiyatlari mujassam bo'ladi. Ingliz frazeologiyasi boy va uning tarixi uzoq. Bunda sof ingliz frazeologizmlar qatorida chetdan qabul qilingan, ya'ni internatsional frazeologizmlar ham talaygina.

Frazeologizmlar chuqur va boy ma'noga ega bo'lishi bilan bir qatorda nutqqa alohida ko'rk, tarovat bag'ishlaydi, ammo uni faqatgina tilga «bezak» yoki, aksincha, «ortiqcha» deb eskirgan qarash bilan qarab bo'lmaydi. Dunyoda iboralarsiz tilning o'zi yo'q, xususan ingliz frazeologiyasi ham juda boy va o'zining ko'p asrlik tarixiga ega.

Frazeologiya – o'ta murakkab hodisa va uni o'rganish o'ziga xos uslubni taqozo etadi, shuningdek, boshqa bir qator leksikologiya, grammatika, stilistika,

fonetika, tarix, mantiq va mamlakatshunoslik kabi fanlar ma'lumotlariga murojat qilgan holda o'rganishni talab etadi.

Frazeologiyaning ba'zi muamolari bo'yicha mutaxassislarning fikrlari turlicha. Binobarin, frazeologiya sohasida ilmiy ish olib boruvchi tilshunoslarning oldida turgan vazifalardan biri – mavjud fikrlarni umumlashtirib, ularni birlashtirib yagona to'g'ri fikrni izlab topishdan iboratdir.

Ingliz va Amerika lingvistikasida frazeologiya nazariyasiga oid ilmiy ishlar salmog'i ko'p emas. Mavjud tadqiqotlarda ham frazeologizmlarni ajratishning ilmiy isbotlangan mezonlari, frazeologik birikma va so'z nisbati, frazeologizmlarning tuzilishi, ularning variantliligi, tarkiblanishi va umuman frazeologizmlarni o'rganish uslubi kabi fundamental masalalarga yetarli o'rin berilmagan.

Sharlp Balli phraseologiya atamasini «stilistikaning so'z birikmalarini o'rganuvchi bo'limi» ma'nosida kiritdi, ammo mazkur atama G'arbiy Evropa va amerikalik lingvistlarning asarlarida boshqa uch ma'nolarda o'z aksini topdi:

- so'z tanlash, ifoda shakli, ta'riflash (formulirovka);
- til, bo'g'in, uslub;
- ifoda, so'z birikmasi.

Xususan, phraseology so'zining ma'nosini ingliz va amerikanacha lug'atlardagi ifodasi orqali ko'rishimiz mumkin.

Angliya va AQSHda frazeologiya masalalarida (maqol, idiomalar) asosan semantika va grammatikaga oid tadqiqotlarda, shuningdek, frazeologik lug'atlarning so'z boshida uchraydi. So'z birikmalarining idiomatik tuzilishiga oid bir qator maqolalar mavjud. Maqollar borasida esa aksincha, ularga bag'ishlangan ilmiy ishlar talaygina. Bu sohada hatto maxsus jurnal «proverbium» (1965 – 1975 yy.) nashr etilgan. Ushbu jurnal chop etilishining sababi, paremiologiyaning (maqollarni o'rganuvchi soha) fol'klyor – xalq og'zaki ijodining tarkibiy qismi nuqtai nazaridan qaralganligidadir.

Frazeologiyaga mustaqil fan, fan sohasi sifatida qarashni birinchi bo'lib mashhur rus tilshunosi E.D.Polivanov olg'a surdi va bu masalaga ko'p martalab

qaytdi²⁸. Uning ta'kidlashicha, leksika – so'zlarning o'ziga xos lug'aviy ma'nosini o'rganadi, morfologiya so'zlarning shakliy tuzilishini, sintaksis esa so'z birikmalarining shakliy ma'nosini o'rganadi.

“Shunday ekan, alohida bo'linga ehtiyoj tug'ilib, sintaksisga yaqin, lekin ayni paytda so'z birikmalarining umumiy ma'nosini emas, balki alohida birikmalarining o'ziga xos ma'nosini o'rganuvchi, huddi leksika alohida so'zning ma'nosini o'rgangani kabi bo'lim yaratish zarur. Tilshunoslikning bu bo'limini men frazeologiya deb atayman. Ushbu ma'noni anglatuvchi boshqa atama ham taklif etish mumkin - «idiomatika»”.

E.D.Polivanovning aytishicha, kelajak lingvistik adabiyotida boshqa bir qator masalalar o'rtasida bizning fanimizga engil-elpi yondashishdan holi bo'lgach, bu bo'lim fanda barqaror va jiddiy o'rniga ega bo'ladi.

E.D.Polivanovdan so'ng ushbu masalaga murojaat etgan olim B.A.Larin bo'ldi. B.A.Larin, frazeologiya tadqiqot ob'ekti sifatida hali o'zining «yashirin rivojlanish» darajasida ekanligi va bu borada jiddiy izlanishlar olib borilmagani, shuningdek, uni leksikografiya, stilistika va sintaksis materiallaridan ajratgan holda o'rganish talab etilayotganini aytadi.

SHuningdek frazeologiyaning tilshunoslikning bir bo'limi sifatida shakllanishda yana bir rus tilshunosi V.V. Vinogradovning izlanishlari ham etakchi ro'l o'ynadi.

Hozirgi kunda frazeologiya leksikologiyaning bir bo'limi darajasidan o'zining tadqiqot ob'ekti va uslubiga ega bo'lgan tilshunoslikning mustaqil fanlaridan biriga aylandi.

Frazeologiya fani tarix, adabiyotshunoslik, lisoniy mamlakatshunoslik va tilshunoslikning bir qator boshqa fanlari leksikologiya, semantika, grammatika, fonetika, stilistika, til tarixi, etimologiya, matn tilshunosligi va umumiy tilshunoslik kabi fanlar bilan bog'liq.

Frazeologiya so'zlardan tarkib topadi, so'z esa leksikologiya o'rganadigan asosiy ob'ekt hisoblanadi. Leksikologiya manbalariga asoslanib frazeologiya

²⁸ Поливанов Е.Д. Русский язык сегодняшнего дня. – М. –Л., 1928 (б). – Кн. 4. –С.144.

komponentlarining tabiatini hamda ularning lisoniy darajasini aniqlash mumkin. Semantikada ishlab chiqilgan soʻzning lugʻaviy maʼnosi nazariyasi frazeologiyaning lisoniy xususiyatini aniqlashda va frazeologiya tarkibidagi maʼnosini farqlashga yordam beradi.

Frazeologiya tarkibidagi soʻz hamma vaqt ham oʻzining morfologik xususiyatlarini yoʻqotib qoʻymaydi, aynan morfologiya bu sohada nima yoʻqolib - saqlanib qolganini aniqlashda yordam beradi.

Frazeologiya tarkibiga turli xil tuzilishga ega boʻlgan soʻz va soʻz birikmalari, shu jumladan iborali gaplar kiradi, aynan shu iboralarning grammatik xususiyatlarini oʻrganish uchun bizga sintaksis borasidagi bilimlar qoʻl keladi. Frazeologiya tarkibidagi soʻz muayyan fonetik qiyofaga ega boʻladi, ammo rivojlanish jarayonida bu qiyofa oʻzgarishi mumkin. Mana shu holatlarni aniqlash uchun esa, albatta, fonetikaga murojaat qilinadi frazeologizmlarning, ayniqsa, idiomatizm va idiofrazeomatizmlarning stilistik quvvati kuchli, ularning maʼnosida konnotativ (lugʻaviy) aspekt yuqori boʻladi. Frazeologiyaning stilistik xususiyatlarini oʻrganuvchi frazeologik stilistika, albatta, leksik stilistikaga suyanadi. Til tarixi va etimologiyaga oid materiallar frazeologizmlarni etimologik tahlil qilishda yordam beradi. Frazeologiyaning nutqda aktuallik darajasini tahlil qilishda matn tilshunosligi nazariyasiga tayanish mumkin.

Frazeologiyani oʻrganishning umumiy tizimini ishlab chiqishda soha mutaxassisi (frazeolog) umumiy tilshunoslik tajribasidan foydalanadi. Oʻz navbatida frazeologiya obʼekti shunday murakkab va oʻziga xoski, uni oʻrganish jarayonida yuqorida sanab oʻtilgan tilshunoslik fanlari rivojlanishiga yangi manbalar yaratadi.

Soʻz – til tizimida asosiy, lekin yagona boʻlmagan nominal vositasi hisoblanadi. Nutqda u boshqa soʻzlar bilan birikib kelish xususiyatiga ega va bu hodisa sintaksis norma va qoidalari bilan muvofiqlashib boradi. Bunday birikmalar tilda mavjud boʻlgan namuna asosida yasaladi. Masalan, A + N namunasidagi sifat va ot qoʻshiluv natijasida namuna talablariga javob beradigan koʻplab misollar keltirish mumkin va hosil boʻlgan birikmalar maʼlum maʼnoni anglatadi. Masalan,

May I come in? Knock at the door, etc. Bunday misollarda mazkur soʻzlar kombinatsiyasi odatda muayyan qatʼiy shaklda ishlatiladi va nuqtda tayyor tarzda qoʻllaniladi. Shunga oʻxshash birikmalarni turgʻun birikmalar deyiladi va ular umumiy lugʻat zahirasiga kiradi. Bunday birikmalarda semantik (maʼnaviy) oʻzgarishlar sodir boʻlmaydi, ular oʻzining maʼnosini saqlab qoladi. Masalan, Good morning! turgʻun soʻz birikmasi – vaqtni ifodalaydi, ertalabki salomlashish.

Agar soʻz birikmasining turgʻunligi qism yoki qismlarining semantik oʻzgarishlari bilan toʻldirilsa, u holda bunday soʻz birikmasi frazeologik birikmaga aylanadi. Frazeologik birikma soʻzlarning birikishidan tarkib toʻishiga qaramay, tilshunos uni erkin birikma sifatida sintaksisda emas, balki leksikologiyada oʻrganadi. Buning bir necha sabablari bor. Birinchidan, namuna doirasida erkin tuzilgan birikma tarkibida xohlagan qismni almashtirish mumkin. Masalan, redsifati oʻzining rang xussiyatini saqlagan holda boshqa koʻplab otlar bilan birikib kelishi mumkin: red frock, red banner, red striʼ, red hair, etc. Oʻz navbatida namuna doirasida predmetni anglatuvchi har qanday ot koʻplab sifatlar bilan birikib kelishi mumkin: red frock, dirty frock, new frock, expensive frock, etc.

Frazeologik birikmada esa birikmalar oʻrtasidagi aloqa qatʼiy va qismlardan birini almashtirish, albatta, maʼno yoʻqolishiga olib keladi. Masalan, frazeologik birikma black sheep (the worst member) odatiy A + N namunasi boʻyicha qurilgan boʻlsada, qismlardan birida biron bir arzimas oʻzgarish roʻy bersa ham (black ram yoki grey sheep), asl maʼno yoʻqoladi.

SHunday qilib, soʻz birikmalaridan ayrimlari, hatto gaplar ham bir qolipda qoʻllanaverib, boʻlinmaydigan holga kelib qoladi.

Frazeologik birlik ni leksikologiyaning tadqiqot obʼekti sifatida oʻrganilishining ikkinchi sababi, uning soʻzga xos belgilari borligidadir. Frazeologik birlik soʻz kabi nutq jarayonida tarkib toʻmaydi, balki tayyor qolip shaklida saqlanadi.

Frazeologik birlik huddi soʻz kabi yagona leksik maʼnoga ega va yaxlit holda gap boʻlagi vazifasini bajaradi. Bu esa frazeologik birlikning grammatik funktsiyaga ega ekanligini anglatadi. Masalan, Instead of taking urgent measures

the government chose sitting on the fence; bu erda frazeologik birlik – sit on the fence yagona leksik ma`noni bildiradi, ya`ni waiting va ga`da qo`shma kesim vazifasini bajaradi. (aksincha kesim va o`rin holi vazifasini bajarmaydi chose sitting in the pub erkin birikmasi kabi).

Frazeologik birlik so`z kabi ko`p ma`noli bo`lishi mumkin. Buni quyidagi ibora misolida ko`ring: to place oneself on record; birinchi ma`nosi to do smth noteworthy va ikkkichi ma`nosi to say smth in public.

Frazeologik birlikning ma`nodorlik xususiyatini stilistik jihatdan ham olib ko`rishimiz mumkin. Masalan, wear and tear (og`z.n.) turg`un birikmasi biron bir narsaning jismoniy ishdan chiqishini ifodalaydi (breaking down), ayni paytda emotsional holatni ham ochib berishi mumkin (overstrain).

Frazeologik birlik tarkibida qo`shimcha (affiks) qo`shish orqali yangi so`z yasash hodisasi ham ro`y beradi. Masalan, brain-trust frazeologik birikmasiga – er suffiksi qo`shilishi natijasida brain-truster; single-rhyme-single-rhymer hosil bo`ladi. Biroq frazeologik birlik so`zdan farqli o`laroq, nutqda turli o`zgarishlarga uchraydi, natijada qotib qolgan qismlar tarkibida grammatik o`zgarishlar sodir bo`lishi mumkin. Ayniqsa, bu holat frazeologik birlik tarkibidagi fe`lda yaqqol ko`rinadi: masalan, I ground my teeth; he was grinding his teeth: let her grind her teeth then, etc. Bunday hodisa sifatda ham ko`rishini mumkin, lekin sifatdagi o`zgarishda frazeologik birikmaga qo`shimcha ekspressivlik ko`chadi. Masalan, You are the coolest cucumber I`ve ever met. Shunday qilib, frazeologik birikma so`z birikmasi hisoblansada, lekin o`zining funktsiyaviy-semantik xususiyatidan so`zdan farqli emas. Frazeologik birlik bir qoli`da qo`llanaverib, bo`linmaydigan holga kelib qolgan, o`zaro semantik (ma`noviy) jihatdan bir-biri bilan bog`langan so`z birikmasidir. Nutqda bunday birikmalar yaratilmaydi, ular tayyor holda bo`ladi. Gapda gap bo`lagi funktsiyasini bajaradi.

Frazeologik birliklar tarkiban tayyor holda bo`lsada, ularni tuzilishiga qarab guruhlarga ajratish mumkin: birinchi guruh, erkin birikmalarga shaklan o`xshash frazeologik birliklar; take silk, break the ice, etc. Ikkinchi guruhni yasama fe`lar tashkil etadi; pick and chooce, rain or shine, light to darkness, for lore or money,

by hook or by crook, etc. Uchinchi guruhni esa predikativli (kesimli) tuzilishga ega bo'lgan frazeologik birliklar tashkil etadi; as the matter stands, before you could say Jack Robinson; as the crow flies, etc. SHuningdek, his-hayajonli, buyruq mayli shaklidagi frazeologik birliklar; Take it easy! Draw it mild! Bless my soul! Take your time, etc. Qiyosiy xususiyatga ega bo'lgan birikmalar as dead as a door-nail, as mad as a hatter, etc. Bir necha ko'makchi so'zlardan tuzilgan frazeologik birliklar behind the scenes, in the blood, for good, etc. va kesimli frazeologik birliklar to bear up, to give in, etc.

Nutqda frazeologik birliklarning funktsiyalariga ko'ra, A.V.Kunin ularni 2 asosiy guruhga bo'lib tasniflaydi:

1. Nominativ birikmalar – predmet, hodisa, belgi xususiyatlariga ega bo'lib, turli tuzilishga ega bo'lishi mumkin. A bitter pill to swallow, a wolf in sheepps clothing, a cock and bull story; to stir up a hornetsp nest, much cry and little wool, to call a spade a spade, etc.

2. Nominativ-kommunikativ frazeologik birliklar nutqni kuchaytirib turli tuzilishga ega: as hell, birds of a feather, this cat wonpt jump, the fatps in the fire, etc.

Tilning frazeologik fondini o'zining yadrosi va chegarasiga ega bo'lgan semantik tuzilish ko'rinishida tasavvur qilish mumkin. Struktura yadrosi bir-biriga o'zaro ta'siri natijasida qismlarining ma'nosini butunlay o'zgartirib yuborgan frazeologik birliklar hisoblanadi. V.V.Vinogradov bunday birikmalarni frazeologik chatishmalar deb ataydi; ingliz tilida esa N.N.Amosova tomonidan iste'molga kiritilgan idiomalar atamasi qo'llaniladi (mareps nest-nonsense spill the beans-reveal a secret).

II BOB

TARJIMADA BADIY SAN'ATLARNI QAYTA YARATISH MUAMMOLARI

2.1. Antitezis (tazod) tarjimasi xususiyatlari

Asliyatda mantiqiy erkin ma`nodagi so'zlar yordamida bayon etilgan fikr tarjima tilida har xil lug'aviy ma'noga ega lisoniy vositalar – asliyatdagi vositalarga moddiy jihatdan yaqin hamda undan leksik tarkibi farq qiladigan til birliklari yordamida ifoda etiladi. Kontekstual sinonimik qator tashkil etadigan bunday vositalarning moddiy jihatdan asliyatdagi birlikka yaqini ko'proq o'zga tillar tahsirida hosil qilingan bo'ladi. Uning nutqda, aniqrog'i, tarjimada uchrashi, so'zlarning o'zaro mantiqiy asosda birikuvi, fikrning me'yor doirasida ifoda etilishi nuqtai nazaridan, hech qanday e'tirozga sabab bo'lmaydi. Uning leksik tarkib jihatidan farq qiladigan birikma esa asosan tarjima tilining azaldan "o'ziniki" hisoblanadi. Tarjimada aynan shu variantga murojaat qilish tarjima tilining tabiiyligini yuzaga keltiradi. Chunki bu yo'l nafaqat fikrning to'g'ri talqin etilishini, balki ifodaning sof o'zbekona jarangdorligini ham tahmin etadi. Masalan, rus kishisi farzand ko'rmagan odamga nisbatan "on bql bezdeten" birikmasini ishlatga, o'zbek bu o'rinda jo'ngina qilib "u befarzand edi" deyishi mumkin. Ifoda hech qanday e'tirozga sabab bo'lmaydi. Ammo ona tilini nozikliklari bilan his qilgan o'zbek bunday nutqiy vaziyatda "U tirnoqqa zor edi" birikmasidan foydalanishni afzal ko'radi. Yoki o'zbek turmushga chiqmagan yoki turmush ko'rmagan bokirani shunchaki "u xali qiz bola" desa, ingliz "She is maid" birikmasidan foydalanadi. Yevropaliklar va amerikaliklar uchun turmushga chiqayotgan ayolning bokira bo'lishi u darajada muxim talab emas. Sababi, ularda turmush qurmoqchi bo'lgan yoshlar avvaliga ma'lum muddat birga yashab ko'rishadi. Bir-birlari bilan oila qurishlariga ko'zlari yetganda va bir-birlarini sevishlariga aniq iqrar bo'lishganlaridagina ular rasmiy nikoxdan o'tishadi. Ingliz adabiyotida Janna d'Arkni "the Maid of God, maid of Orleans" deb ifodalanishida ham bu tarixiy shaxsga nisbatan e'tirof sezilib turiladi. Yoki Jek London

asarlaridagi “She wolf” obrazi yahni “Ona bo’ri” timsolini o’zbekchadagi talqini borasida ham shunday fikrlarni bildirish mumkin.

Badiiy adabiyotda shunday she’riy sanhatlar borki, ular asarning ichki go’zalligini ta’minlab, uning badiiy qimmatini oshiradi, undagi poetik g’oyaning favqulodda teran va nozik darajada ifodalanishini ta’minlaydi. Aslida she’r san’atlari tasodifiy xarakterga ega bo’lmasdan, asarning g’oyaviy-badiiy butunligi, davrning ijtimoiy-estetik talablari, muallifning badiiy-estetik muddaosi, shuningdek, uning o’ziga xos uslubi bilan chambarchas bog’liqdir.

“Qutadg’u bilig”dagi faol shehriy san’atlardan yana biri tazoddir. Ma’lumki, tazod she’riyatda keng qo’llanadi. Faqat uning nasr (proza)dagi qo’llanishiga nisbatan antiteza, she’riyatda esa tazod atamasi qo’llanadi.

“Tazod” so’zi “zid qo’yish”, “qarshilantirish” ma’nolarini ifodalaydi. Bu sanhat baytda ma’no jihatidan o’zaro zid, qarama-qarshi bo’lgan so’zlarni qo’llab, ta’sirchan badiiy timsollar, lavhalar yaratishni nazarda tutadi”²⁹.

Tazod ingliz tilida antithesis – (antiteza) nomi bilan yuritiladi. “Antiteza stilistik uslullardan biri bo’lib, qarama-qarshi ma’nolar asosiga quriladi va voqelikning yorqin va timsolli bo’lishini ta’minlaydi. Ingliz tilida antitezaning ikki turi mavjud bo’lib, ular mantiqiy antiteza va lug’aviy antonimlardir”³⁰. Lug’aviy antiteza antonim so’zlarning lug’aviy ma’nosiga asoslanadi:

“They speak like saint and act like devils.” (*Ular farishta kabi gapiradilar va shayton kabi harakat qiladilar*)

Mantiqiy antiteza bevosita kontekst tabiatidan kelib chiqib yaratiladi. Unda ma’nosi bir-biriga zid bo’lmagan so’z va iboralar ishlatilib matndagi voqelik tazodni yuzaga keltiradi:

We are *young*, friend, like *the flowers*,

You are *old*, friend, like *the tree*,

What concern have you with ours?

You are *dying*, we’re *to be*

²⁹ Ҳоҷиаҳмедов А. Шеър санъатларини биласизми? – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 18. Бу ҳақда батафсил маълумот учун қаранг: Ё.Исҳоков. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Zarqalam, 2006. – Б. 265.

³⁰ Musayev Q. English Stylistics. –Т.: Adolat, 2003. – P.184.

It is very true, I'm *dying*,
You are *roses* still in bud... (*J. Mansfield*)

Mazmuni:

Biz gullar kabi yoshmiz, do'stmiz,
Sizlar qari, do'stsiz daraxt kabi,
Biz bilan qanday aloqangiz bor?
Sizlar o'lasiz, biz yashaymiz.
Xaq gap, men o'layapman
Sizlar hali ham g'unchasiz (*J. Mensfild*)

Antiteza ingliz adabiyoti, xususan, she'riyatida ham keng qo'llaniladigan san'atlardan biri hisoblanadi.

“Tazod badiiy tasviriy vosita sifatida eng avvalo mahlum badiiy obrazning ichki xususiyatlarini yorqin gavdalantirishga xizmat qiladi. U shoir ko'zda tutgan g'oyaning jonli va ta'sirchan tarzda yuzaga kelishini ta'minlaydi, shu bilan birga, ijodkorga turmushning butun murakkabliklarini, ma'lum badiiy obrazning ichki xususiyatlarini to'laroq ochilishida qulay vositadir”³¹.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asari tom ma'noda she'riy san'atlarga boy asar sifatida ma'lum. Asar to'rtliklarida qo'llanilgan ta'zodlarni tahlil etish, bir tomondan, Yusuf Xos Hojib poetik mahorati sirlarini yanada teranroq anglash va kengroq ochishga yordam bersa, ikkinchi tomondan, asarning boshqa tillarga tarjimasidagi o'ziga xosliklarni kuzatishga qulay imkon yaratadi.

Yusuf Xos Hojib asardagi qahramon va obrazlar ichki xususiyatlarini yanada yorqinroq ko'rsatishda ko'plab badiiy tasvir vositalari va she'riy san'atlardan foydalanganki, ular asarning badiiy qimmatini oshirishga xizmat qilgan. “Qatadg'u bilig” to'rtliklarida mullif, bir-biriga zid ma'noli (antonim) so'zlardan ko'plab foydalanadi. Bunday juftliklarning umumiy miqdori 200 dan ortadi.

³¹ Исмоков М., Рахмонов Н. ва б.: Ўлмас обидалар. –Т.: Фан, 1989. – Б.408.

Muallif qo'llagan tazodlar o'zining hayotiyiligi va obrazlilik bilan ahamiyatli. Asarda qo'proq *aqi-saran* (saxiylik-baxillik), *to'ru-kuch* (adolat-zulm), *quvazlak-ko'ngil qusqi* (kibrilik va ko'ngli kichik (kamtar)lik), *chig'ay-bay*, *sevinch-qadg'u*, (sevinch-qayg'u, alam), *visal-firaq* (visol-firoq), *avin-yig'la* (ovunmoq-yig'lamoq), kelir ham barir-mengu qalir (kelib ketar-mangu qolar), *biliglig-biligsiz* (bilimli-bilimsiz), ko'ni-egri (to'g'ri-egri) eter-buzer (yashnatadi-buzadi), osal-saq (g'ofil-soq) kabi inson tabiati bilan bog'liq xususiyatlarni aks ettiruvchi antonim so'zlardan keng foydalanilgan. Bundan tashqari *karanqu - yula* (qorong'ulik-mashhala), *suv-o't*, *quzg'un-qug'u* (quzg'un-oqqush) *ipar-kafur*, *yag'iz yer-yashil ko'k* (qora yer - yashil ko'k) singari tabiat bilan bog'liq va boshqa ko'plab zid ma'noli so'zlar vositasida tazodlar yaratilgan. Bevosita to'rtliklarga kelganda esa, ularning qo'llanishida bir qator o'ziga xosliklarni ko'rish mumkin.

Asar to'rtliklarida qo'llanilgan tazodlar o'zining jozibasi, rang-barangligi va nafisligi bilan alohida ajralib turadi. Muallif tazod sanhatini qo'llar ekan, bir-biriga zid ma'noli so'z va iboralarni shunday ishlatadiki, bayt so'ngida yuzaga qalqib chiquvchi mazmun nafis va tahsirchan holda namoyon bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, asarning har ikki inglizcha tarjimasi o'zining mahlum xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Shehriy tarjima borasida ingliz shoir va tarjimoni Volter Mey muvafaqqiyatga erishgan bo'lsa, nasriy bayon orqali asarning asosiy mazmunini ochishda CHikago universiteti professori Robert Denkoffning o'ziga xosligi ko'zga tashlanadi.

Ikki tarjimonning asar to'rtliklarida qo'llanilgan tazodlarni ingliz tiliga o'girish tajribalari o'rganilganda, bir millatga xos bo'lgan tafakkur tarzining boshqa bir millat tafakkur tarzi bilan tabiiy tarzdagi o'xshash va farqli jihatlari ko'zga tashlanadi.

Asarning "Kuntug'di elig to'g'risida"gi bobida Yusuf Xos Hojib shoh fazilatlarini va sifatlarini to'g'risida fikr yuritarkan, yurtboshi doimo hushyor hamda sezgir bo'lishi hamda aslo g'aflatda qolmasligi lozimligini tahkidlaydi. Bunga misol qilib mazkur to'rtlikni keltiradi:

Udug'lug' bu saqlqqnq ogdi erən,
Osallqq bilə əldi er miñ tumən.
Osal bolma saqlan qamug' ishdə sən,
Osayuq aruttq ekəgudə san. (432-433)
Er kishilar hushyorlik va soqlikni maqtadilar,
G'ofillik sababli ming tumanlab kishilar o'lib ketdi.
Barcha ishda sen g'ofil bo'lma, (o'zingni) saqla,
G'ofillik (kishini) ikki dunyodan ozdiradi, deb bilgin.

Ko'rinadiki, hushyorlik va soqlik har bir kishi, ayniqsa, yurtboshi uchun g'oyat muhim fazilat. Baytda "udug'lug'-hushyorlik" va "osalliq-g'ofillik" so'zlari yordamida go'zal obrazli tazod yaratilganki, bu baytning mazmuniga va ohangiga nafislik bag'ishlaydi. Yusuf Xos Hojib mazkur bayt orqali insonlar orasidagi ikki fazilatga ehtibor qaratmoqda. U hushyorlik va g'ofillikni o'zaro solishtirib, ulardan biri kishini maqtovlarga sazovor qilsa, ikkinchisi odamni dunyodan ozdirishi va bu oxir – oqibat tanazzulga olib kelishini tahkidlash vositasida o'quvchini har ishda hushyorlikka chorlaydi va g'ofillikdan qaytarishga urinadi.

Asarning birinchi inglizcha talqini muallifi, professor R.Denkoff "Qutadg'u bilig"ni asosan nasriy yo'l bilan tarjima qilgan bo'lsada, asardagi 200 ta to'rtlikni shehriy tarjima qilganligini avvalgi boblarda tahkidlab o'tgan edik. Tarjimachilik tajribasidan mahlumki, nazmiy tarjimaga qaraganda nasriy tarjimada mutarjimlar o'zlarini erkinroq his etadilar. SHunga qaramay, asar to'rtliklarini shehriy asnoda ingliz tiliga o'girish olim-mutarjimning yuksak jasorati namunasidir:

Vigilance is a quality 'raised of man;
How many died with a carelessness their 'retext.
Be careful then, awake from heedless slee',
You'll gain the good of this world and the next. (54)

Mazmuni:

Hushyorlik kishini ulug'lovchi fazilat,

Qancha kishi o'zlarining g'ofilliklari tufayli o'lib ketdilar.

Hushyor bo'l, g'aflat uyqusidan uyg'on,

SHunda bu dunyo va u dunyo saodatiga erishasan.

Mutarjim asliyatdagi tazodni ingliz tilida ham tazod bilan bera olgan. Tazod uchun xizmat qilgan so'zlar tarjimada ham muqobil so'zlar vositasida o'girilgan va asliyatdagi nafis poetik joziba ingliz tilli kitobxonga to'la yetkazilgan. To'rtlik tarjimada *absb* tarzida qofiyalangan bo'lib, bu ingliz shehriyatidagi ballada (the ballad stanza) tipidagi to'rtliklar sirasiga kiradi.

Ingliz tarjimoni V.Mey asarni ingliz tiliga to'la shehriy tarjima qilib, bu borada salmoqli yutuqlarga erishgan. SHEhriy tarjima borasida to'g'ri tahkidlanganidek, "proza tarjimasi qanchalik mushkul bo'lmasin, ammo shehriy asar tarjimasida tarjimon oldida yana qo'shimcha qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Tarjimon shehrdagi ritm, qofiya, band, ohangni qayta yaratishi lozim"³². Bundan tashqari shehriy tarjimada asliyat poetikasini borligicha va undagi badiiy sanhatlarni imkon qadar asliyat uslubiga yaqin tarjima qilish tarjimaning adekvatligi uchun juda muhimdir. V.Mey to'rtlikni quyidagicha o'giradi:

To shar' sight and vigilance — honour and 'raise,

For carelessness leads many men to their graves.

So don't make mistakes, kee' a shar' eye on all.

From careless neglect between two worlds you'll fall! (442-443)

Mazmuni:

O'tkir nigoh va hushyorlik hurmat va maqtovdir,

G'ofillik ko'p kishilarni qabrga boshlaydi.

SHuning uchun xato qilma, hamma narsaga o'tkir nigoh bilan qara,

Ehtiyotsizlik qilsang, ikki dunyo o'rtasida yiqilasan.

V.Mey tarjimasi o'zining shehriy nafosati bilan kishini rom etadi. Bir-biridan uzoq oilaga mansub tildagi asarni shehriy o'girish tarjimon uchun jo'n ish emasligi barchaga mahlum. Bu borada mutarjimning yuksak poetik mahorati mazkur tarjima orqali ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Asliyatdagi nafis tazod sanhati ingliz tilida ham

³² Расулий М. Ўзбек адабиётидан рус тилига қилинган таржималарга бир назар. // Таржима санъати. МТ. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1973. – Б.165.

o'z nafosatini yo'qotmagan. To'rtlikning boshqa poetik jihatlari ham asliyatga va ingliz to'rtliklari qonuniyatlariga (Two couplets rhyming quatrain) to'la mos keladi.

2.2. O'ziga xos ibora (ideoma)lar tarjimasi muammolari

Tarjima nazariyasi yoki boshqacha aytganda, tarjimashunoslik tarjima jarayoni, uning qonuniyatlari, asliyat va tarjima matnlari ustida olib borilayotgan kuzatishlarni umumiyalashtirish, tizimlashtirish orqali ikki til orasidagi muvofiqliklar darajasini, ularning o'ziga xos xususiyatlari mohiyatini ochib berishga yo'naltirilgan filologiya sohasidir. Shuningdek, uning vazifasiga tarjimonning milliy madaniyat rivojida o'rnini belgilash, uning amaliy va nazariy jihatlarini ko'rib chiqish ham kiradi.

Tarjima nazariyasining tadqiq obyekti tarjima jarayoni, tarjima nazariyasini rivojlantirishga asos bo'luvchi turli asarlar va ularning tarjima matnlaridir.

Tarjima nazariyasini umumiy, xususiy va maxsus nazariyalarga ajratish tarjimashunoslik sohasida umume'tirof etilgan qoidalardan biridir. Tarjimaning umumiy nazariyasi tarjima jarayonining universal qonuniyatlarini, janriy talablardan qat'i nazar tillararo, stilistik, vazifaviy muvofiqliklarning asoslarini o'rgansa, xususiy nazariya konkret bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi. Maxsus nazariya esa tarjimaning janriy-stilistik xususiyatlariga ko'ra bo'lingan turlarining o'ziga xos qonuniyatlarini o'rganadi. Tarjima o'zining janriy-stilistik xususiyatiga ko'ra ikki turga bo'linadi. Biri sohaviy (ilmiy, texnik, 'ublitsistik va hokazo) tarjima turi bo'lsa, ikkinchisi badiiy (she'riy, nasriy) tarjimadir. Badiiy tarjimaning boshqa tarjima turlaridan farqi shundaki, uning bosh vazifalaridan biri badiiy adabiyot namunalaridagi kommunikativ ta'sirning yorqin ko'rinishlaridan biri bo'lgan badiiy-estetik zavqni uzatish sanaladi.

Badiiy tarjima nazariyasi tarjimonga aniq tamoyillar asosida harakat qilish, o'z mahoratini takomillashtirishga yordam beradi. Tarjima tarixini kuzatadigan bo'lsak, badiiy tarjimada ikki yondashuv – tilshunoslik va adabiyotshunoslik yo'nalishi mavjudligini aytib o'tishga to'g'ri keladi. Tilshunoslar tarjima qonuniyatlarini leksik, grammatik va matniy muvofiqliklar ichidan izlaydilar. Adabiyotshunoslar esa asosiy e'tiborni tarjimaning akseologik jihatlariga, ya'ni matnning g'oyaviy-estetik va badiiy fasohatiga qaratadilar. Ular uchun muhimi

badiiy matnda estetik ekvivalentlikka erishishdir. Oxirgi yillardagi jahon tarjimachiligi amaliyoti tarjima ishlarining saviyasiga tilshunoslik va adabiyotshunoslik yo`nalishlarining uyg`un holda birlashishi ijobiy ta`sir etishini tasdiqlamoqda. Darhaqiqat, badiiy asar tarjimasi ustida ishlayotgan tilshunos estetik tahlil va adabiyotshunoslik yondashuvidan xoli bo`la olmaydi. Xuddi shuningdek, adabiyotshunos ham tarjima ustida fikr yuritar ekan, lingvistik jihatlar va til normalarini hatlab o`ta olmaydi. Tarjimashunos olim M.Xolbekov xorijlik tarjimashunos olimlarning ilmiy konse`siyalarini tahlil qilar ekan, XXI asrda tarjima jahon xalqlari va sivilizatsiyasi o`rtasidagi kommunikativ vositaga aylanganligi tarjimaning lingvistik va adabiy as`ektlari tarafdorlari o`rtasida e`tirof etilayotganini alohida ta`kidlaydi.

Tarjimada asliyatdagi kabi estetik ta`sirni hosil qilish, badiiy obrazni to`laon gavdalantirish ayrim hollarda tarjimonni jumla qurilishlarini o`zgartirishga, tarjimaning turli usullarini qo`llashga majbur qilishi mumkin. Biroq ekvivalentlik tamoyillarini buzishi va holatliy manzaradan uzoqlashishi mumkin emas. V. Komissarov keltirgan misol va sharh bizning fikrlarimizga yaxshi dalil bo`lishi mumkin: “But night-time in this dreadful s`ot!” – Night, when the smoke was changed to fire; when every chimney s`urted u` its flame; and ‘laces, that had been dark vaults all day , now shone red hot, with figures moving to and fro within their blazing jaws and calling to one another with hoarse cries (Ch. Dickens) A kakaya strashnaya bila zdes noch! Noch, kogda dim ‘revras`halsya v ‘lamya, kogda kajdaya truba ‘olixala ognem, a ‘royemi dverey, siyayushiye ves den chernotoy ozaryalis bagrovim svetom, i v ix ‘ishushey jarom ‘asti metalis ‘rizraki, si’limi golosami ‘ereklikavshiyesya drug s drugom (‘er.N. Voljinoy).

Tarjimon, avvalo, bosh`anasiz qizchanning tasavvuridagi tunning dahshatli manzarasini badiiy bayon qilish istagi bilan ish ko`radi, deb sharhlaydi tarjimashunos olim. Ushbu vazifani bajarish uchun tarjimon jumla strukturasini o`zgartiradi (“noch v etom ujasnom meste” → “kakaya strashnaya bila zdes noch”), ayrim so`zlarga muqobillar to`adi (changed to fire – ‘revras`halsya v ‘lamya, s`urted u` flame – ‘olixala ognem, figures - ‘rizraki), holatni o`zgacha

tarzda bayon etadi. ('laces that had been dark vaults all day, t.ye. "tam, gde ves den bili cherniye skle'i", zamenyayetsya boleye 'onyatnim "'royemi dverey, siyayushiye ves den chernotoy"). Komissarov fikricha, ushbu o'zgartirishlar qanday baholanishidan qat'i nazar, ularni badiiy tarjima talab qilgan bosh vazifa, ya'ni estetik-hissiy ta'sirni uzatish istagidan kelib chiqqan ekvivalent yondashuv deyish mumkin.

Badiiy tarjima, o'z navbatida she'riy va nasriy tarjima turlariga bo'linadi. Ular ham badiiy adabiyotning janrlariga qarab she'r, dramatik asarlar, roman, qissa, hikoya va hokazo tarjima yo'nalishlariga bo'linadi. Har bir yo'nalishning yuqoridagi ikki tur talablaridan kelib chiqib, umumiy va farqli jihatlari mavjud. Bu jihatlari aslyat mansub bo'lgan qonun-qoidalarni belgilab beradigan mezonlarga bog'liq yondashuvlar mohiyatidan kelib chiqadi.

Badiiy tarjima nazariyasi rivojida turli fanlarning, jumladan, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix, falsafa, sotsiologiya, 'sixologiya, etnografiya, matnshunoslik sohalarida to'langan boy tajriba katta o'rin egallaydi. Madaniyatlararo kommunikatsiya qonuniyatlarini aniqlash, aslyat tarjimasida keng qamrovli axborotni aks ettirish va ularni teng darajada uzatish usul hamda vositalarini tadqiq etish ayni fanlar yutuqlaridan keng foydalanishni taqozo etadi.

Ayniqsa, til va matn inson ma'naviy hayotini aks ettiruvchi ko'zgu sifatida tarjima nazariyasi va matnshunoslik fanining chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Matnning bir necha ta'riflari mavjud. Matnshunos olimlardan biri L. Loseva matnning quyidagi uch belgisini ko'rsatib o'tadi:

- 1) matn – bu, yozma shaklda axborot;
- 2) matn mazmuniy va strukturaviy tugal ko'rinishga ega;
- 3) matnda muallifning taqdim etilayotgan axborotga munosabati o'z aksini to'adi (muallif yondashuvi).

Tarjimaning umumiy nazariyasida og'zaki matn ti'lari bilan bog'liq ko'zda tutilgan badiiy, rasmiy, ijtimoiy-axborot, ilmiy-texnik, musiqaviy kabi yana bir qancha matn ti'laridan farqli badiiy tarjimada faqat yozma matn ustuvor hisoblanadi. Badiiy matnlar janriy, uslubiy va vazifaviy jihatlari ko'ra bir-

birlaridan jiddiy farqlanadilar. Har bir matn turi tarjimonni alohida yondashuv va talablarga rioya qilishga majbur qiladi. Badiiy matnlar janriy-shakliy jihatdan nasriy, nazmiy, dramatik va hokazo ti'larga bo'linadi. Matn ti'lari tarjima usul va vositalarini erkin tanlashga izn bermaydi. Har bir adabiy tur va janrning o'z qonuniyatlari kabi shakllari ham tarjimada aynan saqlanishi lozim.

Badiiy asar matni tahlili tarjima jarayonida amalga oshiriladigan dastlabki vazifadir. Badiiy matn yuqoridagi belgilardan tashqari o'ziga xos belgilarga ham egaki, ularni bilmasdan turib, tahlilga kirishish qiyindir. Badiiy matn (she'riy, nasriy, dramatik) estetik yuk va muallifning shaxsiy g'oyaviy maqsadidan kelib chiqib muayyan alohidalik kasb etadi. Bu o'ziga xoslik muallifning ijodiy shaxs sifatidagi uslubiy betakrorligidan darak beradi.

Muallifning obrazli tafakkuri badiiy ijodning muhim xususiyatidir. Uning fikrlari va hissiyoti nutq vositalari orqali badiiy nutqning obrazli bo'lishiga xizmat qiladi. Hayotni badiiy aks ettirish, voqelikni obrazlar orqali aks ettirishdir. Badiiy matnda biz bir obraz emas, balki obrazlar tizimi bilan to'qnashamiz. Shu jihatdan badiiy matnda obrazlarni tahlil qilganda ularning g'oyaviy-estetik mazmuni va badiiy matn tilini o'rganish muhimdir.

Nasrda muayyan tasvir bayoni ko'' joyni egallasa, she'rda bir misra yoki bandda ifoda etiladi. Kichik hajmdagi she'riy ifodada katta ma'no va estetik manzarani berish mumkin. She'rda qanchalik sintaktik konstruksiyalar kamaytirilib ma'no va hissiyotga urg'u berilishi, uning obrazlilikini keltirib chiqaradi.

She'rning ohangdorligi badiiy matn musiqiyligini ta'minlovchi muhim omildir. Shu nuqtai nazardan she'r arxitektonikasi badiiy matnning janriy mansubligidan xabar beruvchi birinchi ko'rsatkichdir. She'r tarjimasida matnni tashkil etuvchi uch asosiy vosita – vazn, qofiya va ifodalilik musiqiy ohang tufayli o'quvchini o'ziga rom etadi, unga kommunikativ ta'sir ko'rsatadi. Badiiy tarjima nazariyasida ohangni uzatish jarayoni eyfoniya (ohang jilosi), ohang tasviri (suv jildirashi, qo'ng'iroq ovozi, ummon to'lqinlari zarbi kabi tovushli obrazlarni tasvirlash) va muayyan kayfiyatni hosil qilish vositalari orqali yetkazilgan badiiy

zavqni tuyishdan boshlanadi. Tarjimon adabiyot nazariyasi tamoyillari, qonuniyatlari va 'redmetini chuqur o'rganishi lozim. U she'riyatdagi adabiy usullar, jumladan metafora va metonimiya kabi o'xshatish usullarini, ifroq (o'ta mubolag'a), mumtane', tadrij, tajnis, tanosub, majoz kabi badiiy san'atlarni, shuningdek, grammatik o'zgartirishlar orqali hosil qilinadigan tarse', anafora, alliteratsiya kabi eyfonik usullar, inversiya hodisasi mohiyatidan yaxshi xabardor bo'lishi talab qilinadi.

Nasriy asarlar matnida esa kom'ozitsiya va syujet bir-biridan ajralmas bo'lib, muallifning g'oyasi uning til boyligi va filologik bilimlari doirasida izchil rivojlantirilib boriladi.

Badiiy matnda yozuvchi asarning mavzusi, mazmun-mohiyati va 'ersonajlarning xarakteriga qarab so'z va ibora tanlaydi, sintaktik qurilish, leksik-grammatik va semantik usullardan unumli foydalanadi. Matnda adabiy til normalari bilan bir qatorda jonli(so'zlashuv) til imkoniyatlari ham baravar qo'llaniladi. Hatto 'ersonaj tilini individuallashtirish uchun jargon iboralar ishlatiladi.

Dramatik asarlar matni janriy va lisoniy xususiyatlariga ko'ra yuqoridagi badiiy matn turlaridan ajralib turadi. Unda muallif bayoni keltirilmaydi va sahna ko'rinishlari va 'ersonajlarning dialoglari vositasida asarning g'oyasi, syujet va kom'ozitsiyasi namoyish etiladi. Dramatik asar muallifi o'z qahramonlarining lirik kayfiyatlarini ularning nutqi va xatti-harakati orqali jonlantiradi. 'ersonajlarning iboralari, tili uning obrazini ochib berishga xizmat qiladi. Ularning dialog va monologlari muallifning matn ortidagi munosabatini belgilaydi. Ushbu munosabatni tahlil qilish dramatik asar matnida yashirin muallif dunyoqarashi, zamonasining g'oyaviy-estetik yo'nalishini to'g'ri belgilashga yordam beradi. Shuningdek, dialog va monologlar, 'ersonajlarning xulq-atvori, mimikasi, tili, kiyim-kechagi, o'tirish-turish tarzi bayonidan asarning milliy koloriti haqida xulosa qilish mumkin.

Badiiy matn badiiy adabiyotning barcha janriy rang-barangligi aks etadi. Unda hissiyot va estetik did hukmron bo'lib, bayon shakli katta ahamiyat kasb

etadi. Adabiyotda voqelikni mantiqiy idrok etishdan ko'ra, badiiy va hissiy-emotsional qabul qilish kuchliroq. Mazmunning qanday shaklda va qay tarzda bayon qilinishga qarab, asarning o'quvchiga ko'rsatadigan hissiy ta'siri va estetik qimmatini yuqori bo'ladi.

Ushbu omillar tarjimondan badiiy asar janri talablariga mos ravishda harakat qilishni, ayniqsa, she'riy matn tarjimasiga katta mas'uliyat bilan yondashishni talab qiladi.

Ideomani (Yunoncha : “o'ziga xos ibora”) tahriflash yanada qiyinroq. Buni mazkur til hodisasiga berilgan tariflarning xilma-xilligidan ham bilsa bo'ladi. SHunday tariflarning ayrimlarini keltiramiz;

1.Ideoma mahlum tilga xos bo'lib, unga o'zlashib ketgan, boshqa tilga so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydigan nutq oborotidir.

2.Ma'nosi ayni ibora tarkibidagi so'zlarning mazmunidan kelib chiqmaydigan iboraga ideomatik ibora deyiladi.

“Ma'nosi o'z tarkibidagi so'zlarning ma'nolariga bog'liq bo'lmagan, umumiy–yaxlit holda ma'no beruvchi ixcham obraz ideomadir.”³³ Ideomashunos olim A.Ya.Royanskiy bunday iboralarning uch asosiy belgisi ajratib ko'rsatiladi:

- a). Birikmaning barqarorligi:
- b). birikmaning majoziy ma'no berishi:
- c). Birikmaning semantik butunligi.

Agar bu tariflarning mazmuni talqin qilinsa xos quyidagi belgilar namoyon bo'ladi:

- 1) U faqat aynan bir tilning o'zigagina xos, demak boshqa tillarda xuddi shunday iboralar yo'q:
- 2) Uni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilib bo'lmaydi:
- 3) Uning ma'nosi tarkibidagi so'zlarning mazmunidan anglashilmaydi.

Avvalo, ideomalarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilib bo'lmasligini ideomaning kriteriysi deb bo'lmaydi, Chunki, ideomalarnigina emas, balki juda ko'p so'zlar va birikmalarni ham aynan tarjima qilib bo'lmaydi:

³³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, И,314

SHunday ideomalar ham borki, ularni so'zma-so'z tarjima qilish ham mumkin. Darhaqiqat, olimlarning ko'rsatishlaricha, tildan-tilga faqat ayrim so'z va iboralargina emas, balki, ko'pgina maqol, matal va ideomatik birikmalar ham kirib kelar ekan. Frazelogizmlar (maqol, matal va aforizmlar)ning ma'nosi kontekst ichida ochiladi. Binobarin, muayyan iboraning manosi ochish uchun uni kontekst ichida olib qarash lozim. To'g'ri, ikki yoki bir nechta tilda ham shaklan, ham mazmunan, ham manaviy tarafdin aynan muvofiq keladigan mutloq ekvivalentlar ham topiladi. Masalan, Jo'jani kuzda sanaydilar-tsiplyaet po oseni schitayut:

egilgan boshni qilich kesmaydi-pokornuyu golovu mech ne sechet:

Biroq bunday ekvivalentlar soni juda kam. Aksariyat hollarda tarjimon har bir maqol, matal va ideomaga asarda tasvirlanayotgan voqealar mazmuni, obhekti, milliy muhit va uslub hususiyatlariga ko'ra o'z tilidan muqobil yoki monand birikmalar topib qo'yadi yoki ularni so'zma-so'z tarjima qiladi. SHunga ko'ra ayni bir xil maqol, matal yoki ideomani ham bir qancha o'rinlarda ma'noga qarab xilma-xil o'g'irish mumkin. Turli tillarda ayni bir xil ma'noni ifodalovchi maqol, matal yoki ideomalar aynan bir xil asosga ayni bir narsaning bir qancha jihatlariga yo bo'lmasa tamomila boshqa objektarga suyangan holda yaratilgan bo'lishi mumkin.

Ingliz tilida "better to do well, than to say well"-rus tilida "luchshe rabotay, chem govorit"-o'zbek tiliga "yaxshi gapirishdan ko'ra yaxshi ishla",

Yoki, inglizchada: "Saying and doing are two things"-rus tilida-"Razgovor i delo-dva razniyu veshi"- "Gap bilan ish boshqa-boshqa narsalardir": nemischada: "Wie der Anfang, so der Ende"-rus tilida: "Delo slavit svoego mastera", O'zbekchada:

"Ish ustasi ulug'laydi", "Wie der Anfang, so der Ende",-rus tilida: "Kak nachalo tak i konets",-o'zbek tilida: "Xayrli boshlangan ish-xayrli tugaydi", kabi maqol, matal va ideomalardagi birikmalarning barcha komponentlari aynandir.

Biroq, endi qutidagilarga ehtibor qiling:

Inglizchada: "Never do things by halves"-o'zbekchada: "Butun ishni chala qilma", rus tilida: "Ne delay pol delo": (ing). "No news good news"-rus tilida:-

“Otsustviye novostey-toje novost”: nemischada: “ An einem Zwinsfaden haengen”-rus tilida: “viset na voloske”, o’zbekchada: “hayoti qil ustida bo’lmoq”:

Ideomatik iboralar va matallar tarjimasida birikmalar tarkibidagi objektlar ayirboshlovi masalasiga befarq qarab bo’lmaydi. Tarjimada mumkin qadar birikmaning aniqroq, asl nusxa ma’nosiga yaqinroq-kontekstga yaqinroq variantini qidirib topishga harakat qilish lozim. Mabodo, galiz chiqmaydigan bo’lsa, uni so’zma-so’z tarjima qilish ham mumkin.

M.SHoloxovning “Tinch Don” romanidan keltiriladigan ikki o’rinda ayni bir xil matal qo’llangan:

1...Da kak je, matg’ tvoya kuritsa, pribegla i oryot, rebyata , vash t vilami poporolisg’» A? eto tak?

2... Narubil dyavol parshiviy ,na dve plntnya xvatalo. Ishili djigit nashelsya, matg’ tvoya kuritsa na dve plnetu xvatilo bq.

Ushbularni Odil SHaripov tarjimasida ko’rib chiqamiz:

1. ...Bo’lmasa, haligi shum hotin, oyog’i kuygan tovuqday: “Bolalarining bir-biriga panshaxa sanchishdi”, deb nega baqiradi? A? Bu qandoq gap?

2. ... “Bekorga chopib, nobud qildi, lahnati shayton, ikki chetanga yetarli-ya! Bildik, rosa qilichboz yigit ekansan. Onang o’lsin, seni tug’may” (114).

3. “Matg’ tvoya kuritsa” matali birinchi misolda “oyog’i kuygan tovuqday” matali bilan, ikkinchi misolda esa “Onang o’lsin, seni tug’may”, iborasi bilan berilgan. Lekin afsuski, bu faqat zohiriy monandlikdir. Chunki, tarjima variantida boshqa nimagadir o’xshatish aspekti bo’lgani holda, asl nusxada bunday aspekt o’xshatishdan ko’ra fon bo’lib qolgan. SHunday qilib, ruscha ideomani “moddiy” tarkibi aynan o’xshatish bo’lgan o’zbekona matal bilan tarjima qilish durust natija bermagan. Chunki, “oyogi kuygan tovuqday” o’xshatish-ibora ruschada “kak ugorelaya koshka” mataliga aynan ekvivalent bo’ladi. Bunda har ikkala birikma boshqa-boshqa obhektlarga (tovuq va mushuk) asoslangan bo’ladi. “Mat tvoya kuritsa” ideomasi esa o’zbekcha “onasi baytal”ideomasiga ekvivalentdir. Bunda ham o’sha manzara hosil bo’ladi: garchi birikmalarning tayanch nuqtalari (tovuq va baytal) mos bo’lmasa-da ma’no jihatidan ular mosdir.

SHunday qilib, keng ma`noda ideomalarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilganda har qanday hollarda ham ularning obrazli tamsiliy asoslari aynan muvofiq keladigan variantlar bilangina o`girish manoning o`zgarishiga, manoviy siljish hodisasi sodir bo`lishiga olib keldi. SHu bilan birga, bunday birikmalarni muqarrar ravishda asar tarjima qilinayotgan tildagi boshqa uzoq muqobil variantlar bilan almashtirishga ortiqcha ruju qo`yish ham uslubni siyqalashtirishga, tarjimatilidagi leksik-frazeologik va obrazli-uslubiy jihatdan kambag`allashuviga olib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ideomalar haqida quyidagi fikrlarimizni ham sizga yetkazmoqchimiz:

Ko`plab frazeologizmlar-ideomalar boshqa tildagi, ayniqsa qardosh bo`lmagan tillardan tarjima qilish, murakkab ish va shu bilan birgalikda hammani ham birday rozi qilib bo`lmaydigan soha. Lekin tarjimani tugatganingizdan keyin esa bir o`z bahringiz ochiladi.

Prof. G'.Salomov bir qator maqol, matal va ideomatik iboralarning avvaliga Yevropa tillaridan rus tiliga va asta-sekin turli yo`llar bilan o`zbek tiliga kirib qolganini o`zining "Tarjima nazariyasi asoslari" darsligida ko`rsatib o`tgan. Masalan, rus tilidagi "otg`dat serdze", "otkrqt dushu" idelmalari bir vaqtlar A.S.Pushkin tomonidan frantsuz tiliga esa bu so`zlar Sharqdan o`tganini payqab olish qiyin emas.

Domokl qilichi, Pirr g`alabasi, Prokrust lojasi va boshqa ko`plab ideomalar ingliz, nemis, fransuz, ispan, rus tillarida ham birday ishlatiladi. Va eng muhimi, bu xalqlarning barchasi bu iboralarni birdek q qabul qiladi. SHuningdek, Axilles tovonni-Axillesovo pyata, Xusuma olmasi-yabloko razdora, Avgey orxonasi-Avgeevo konyushnya, Prometey olovi-ogon Prometeya, Bobil minorasi-Vavilnskoye stolpotboreniye, Amerika ochmoq-Otkrit Ameriku, -Velosiped ixtiro qilmoq-Izobresti velosiped kabilar hozirda internatsional so`zlar sanaladi.

SHunday qilib, maqol, matal va ideomalar tarjimasida eng muhimi "qalb intuitsiyasi" bo`lmasdan, balki bir qator aniq qoidalarga asoslanish ko`proq foyda beradi.

III BOB

TARJIMADA SHAKL VA MAZMUN MUTONOSIBLIGI

3.1 Badiiy tarjimada shaklni qayta yaratish muammosi

Mumtoz she'riyatimizda qofiya va radif badiiyatning asosiy qirralaridan biri sanalib kelgan. Ijodkorning salohiyati she'rlarda qo'llanilgan qofiyalarning g'oyaviy mohiyatini, timsollar qiyofasini ochishdagi ahamiyati, qofiya uchun tanlangan so'zlarning ma'naviy teranligi, ohangdorligi, jilo va jozibasi bilan ham belgilangan. Qofiyaning xilm-xil turlari va san'atlaridan vazn va qofiya munosabatlaridan o'rinli foydalanish shoir mahoratining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham har qaysi ijodkor qofiya va radif ilmini diqqat bilan o'rgangan va ta'lim olib kamol yo'gan.

Qofiyalar she'riy asar musiqiyliigi, jozibadorligini ta'minlashning asosiy va munhim omillaridan biri hisoblanadi. Qofiyadagi so'zlar tarkibidagi har qaysi tovush, misra, bayt, bandga alohida jilo va ta'sirchanlik bag'ishlaydi. Qofiyaning she'riy asarda tutgan o'rni va ahamiyatini to'laroq, mufassalroq anglab yetish uchun qofiya ilmi asoslari: qofiyaning tuzilishi va turlari, she'riy janrlarning qofiya xususiyatlari, qofiya san'ati va qofiya xususiyatlari, xatolari vazn va qofiya, radif va qofiya, qofiya munosabati mazmuni va mohiyatini atroflicha bilish zarur.

Jahon adabiyotida qofiyadan foydalanish badiiy mahoratning muhim qirralaridan biri hisoblanadi. Sharq shoirlari azaldan boshlab qofiya vositasida she'riy asarlarning serjiloligi, ta'sirchanligin ta'munlashga alohida e'tibor berib kelganlar. Asrlar davomida xilma-xil qofiya san'atlari shakllangan. U deyarli hamma vaznlardagi she'rlardan muayyan ritmik vazufani o'taydi. Sheriy misralar oxiridagi tovushlarning ohangdorligi hodisasi qofiya deb ataladi. U she'riy nutqda tasviriy vosita sifatida ham ishtirok etib, muayyan mazmunning yorqinroq va to'la ifodalanishiga xizmat qiladi. Ritmik unsure sifatida misralar oxirini ta'kid etadi, tasviriy ifodaviy vosita sifatida she'rdagi asosiy ma'noni tashuvchi so'zlarni ajratib ko'rsatish vazifasini bajaradi.

Qofiya ikki xil nutq tovushi: unli yo undosh tovush bilan ta'minlanishi mumkin. Unli tovush bilan bitgan qofiya ochiq bo'g'in bilan qofiyalangan

hisoblanadi va u “ochiq qofiya ” deb yuritiladi. Buning namunasini ulug’ shoirimiz Hamid Olimjon qalamiga mansub quyidagi ‘archada uchratishimiz mumkin.

Kundan junga o’sadi ‘axta,
Barg chiqadi harbir daraxtda.
Olmazor gulin to’kadi,
Meva bog’lab shoxin bukadi.

Oxiri undosh tovush bilan tugagan bo’g’inlar “yo’iq bo’g’in” deyilganligidan, shu xilda tugallangan ohangdagi so’zlar “yo’iq bo’g’in” ya’ni, “yo’iq qofiya ” deb ataladi. “O’zbekiston” she’ridan olingan ushbu ‘archada yuoridagi fikrlarni isbotini ko’rishimiz mumkin.

O’xshashi yo’q bu go’zal bo’shton,
Dostonlarda bitgan guliston.
O’zbekiston deya atalur,
Uni sevib el tilga olur.

Qofiya shakl jihatdan soda va murakkab bo’ladi. Agar misralar oxirida bittadan so’z o’zaro ohangdosh bo’lsa, bu hodisa qofiya sanaladi. Agar misralar oxiridagi bir necha so’z o’zaro ohangdosh bo’lsa, bu hodisa murakkab hodisa ya’ni “murakkab qofiya” deb nomlanadi. Ohangdoshlik darajasiga ko’ra, qofiya ikki turga bo’linadi. Agar misra oxiridagi so’zlarning asosiy unli va undosh tovushlari aynan yoki bir bo’lsa, bu hodisa to’la qofiya deb ataladi. Misol:

Zangori ufqqa tikilib ko’zing,
Naqlning davomini so’zlading o’zing.

Agar misra oxiridagi so’zlarning ba’zi tovushlarigina aynan yoki deyarli bir xil, yo o’xshash, ham eshutilishida bir-biriga yaqin bo’lsa, bu hodisa “noto’la qofiya ” deb yuritiladi. Ohangdorlik faqat misralar oxiridagina emas balki ularning ichida ham bo’lishi mumkin. Agar bir misra ichidagi so’zlar o’zaro ohangdosh bo’lsa, bu hodisa “ichki qofiya” deb ataladi.

Qofiya to’rtlik band misralarda ham qo’llanadi. Shu o’rinda qofiyaning “qo’shqofiya” deb nomlangan qofiya san’atida kimlar ko’proq qalam olgan va shu san’at orqali mashhurlikka erishganligi haqida to’xtalib o’tmoqchimiz.

Qo'shqofiyachilik eng avvalo o'zbek xalq qo'shiqchilarida 'aydo bo'lgan. U Mahmud Koshg'ariyning devonida ham mavjud. Mumtoz shoirlarimiz qo'shqofiyani xalq og'zaki ijodidan yozma she'riyatimizga olib kirdilar. Ular bunday qofiyani "qofiyai tardiaks" deb yuritganlar. Alisher navoiy esa uni "Majolisun nafois" asarida "zulqofiyatin" deb atagan va zulqofiyatayinda ko'plab asarlar yaratgan. Ushbu o'rinda qo'shqofiyada yozilgan Mirzo Alibekning quyidagi she'riy 'archasini ko'rib o'tishimiz mumkin.

Kechagi dasht, xattoki o'z

Ishidan sharmandadir.

Jahon-jahon xazinalar

Sahiy bu Vatandadir.

Antik dunyo 'oeziyasida esa qofiya yo'q edi. Bu vaqtda bo'g'in guruhlarining qat'iy qoida asosida joylashtirilishi izchil ritmni kuchaytirish uchun qo'shimcha unsurga qofiya ehtiyoj sezilmagan biroq yangi davr 'oeziyasida hsm qofiyasiz she'rlar ham uchraydi ular "oq she'r" deb yuritiladi. Qofiya turlari bilan bir qatorda misralarning qofiyanish usullarini ham farqlash lozim, ular orasida 3 xili ya'ni kelishuvchi, juft va qo'lovchi qofiya bir muncha keng bo'lgan. Agar yonma-yon joylashgan ya'ni birinchi bilan ikkinchi, uchinchi bilan to'rtinchi, beshinchi bilan oltinchi misralarining oxiri o'zaro ohangdosh bo'lsa bu hodisa juft qofiya deyiladi. Agar she'riy banddagi birinchi misra bilan uchinchi, ikkinchi misra bilan to'rtinchi, kesishgan bo'lsa bunday qofiya turi "kesishgan qofiya" deb yuritiladi. Agar birinchi misra bilan to'rtinchi, ikkinchi misra bilan uchinchi misra o'zaro ohangdosh bo'lsa, bu hodisa "qo'lovchi qofiya" deyiladi. Shoirlarning qo'llaydigan turli- tuman qofiyanish usullari she'rlarning ritmik ohangdorligini oshiradi va rang barang shakllar yuzaga kelishiga yo'l ochadi.

Misralarning qofiyanish tartibiga bog'liq qoida she'iy asardagi murakkab ritmik birlik, ya'ni band yuzaga keladi. Band tuzilishiga ko'ra sonet deb ataluvchi she'riy shakl o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Sonet 14 misrali yirik she'r janri hisoblanib, unda avval ikki to'rtlik so'ngra uchasi bo'ladi. To'rtlikda yo kesishgan, yo qo'lovchi qog=fiya qo'llaniladi. Uchliklardagi misralar esa turli

tartibda joylashishi mumkin. G'arb adabiyotida Sheks'ir sonetlari nihoyatda mashhurdir. Rus adabiyotining yirik nmoyondasi A.S 'ushkin ham sonetlar yaratgan. Shu o'rinda buyuk daho V. Sheks'ir qalamiga mansub quyidagi sonetga qaratishimizni joiz deb bildim.

“let me not to the marriage of true minds
Admit im'ediments love is not love
Which alters when it alternation finds
Or bands with the romover to remove”

Ushbu sonet 'archasida qofiyalanish tartibi yuqorida ta'kidlaganimizdek, “oq she'r” deb nomlanuvchi turga to'g'ri keladi. Ushbu she'r misralaridagi “minds”- “fnds”, -“love”, - “remove” so'zlari o'zaro qofiyadosh so'zlar she'r ohangdorligini, jozibadorligini oshirgan.

Qofiya san'atlari deganda nimani tushunasiz? degan savol berib qolinishi mumkin. Shunda biz shunday deb javob qaytarishimiz mumkin. Qofiya san'atlari qofiyadosh so'zlarning hushohangligi va umuman obrazlilikini ta'minlovchi vositalardan biridir. She'riyatimizda qofiyada ishlatilgan rang- barang san'atkorlar mavjud. Ularni shartli ravishda quyidagicha tasnif va tavsif qilish mumkin. Qofiya bezaklariga quyidagilar kiradi :

“Zulqofiyatayn” - ziynatli qo'sh qofiya, Ataulloh Xusayniy “Badamus-s-sanoyi' ” asrida yozishicha “Zulqofiyatayn deb ul sherni aytadularkim, ani ikki qofiyani lozim ko'rgaylar va oxirgi qofiyadan avvalgi qofiyada to'xtalganda nazmning durust va ma'noning to'g'ri chiqinish shart qilmag'ay” deb ta'kidlab o'tganlar.

1- misol :

Ko'ngliga bo'ldi ajoyib balo qaro oching,
Shikasta ko'ngluma ermish qaro balo soching.

2- misol:

Olmazorlar gulin to'kadi,
Meva bog'lab shohin to'kadi.

Yuqoridagi keltirilgan baytlardagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor qilyaylik-a! Z.M.boburning qalamiga mansub she'riy 'archaning birinchi misrasidagi "balo" va "qaro" so'zlari bilan qofiyalangan. Ayni chog'da, birinchi misradagi "balo" va "qaro", ikkinchi misradagi "qaro" bilan "balo" so'zlari ham o'zaro qofiyadoshdir.

Demak, baytda birgina emas, ikki qofiya ishlatilgan. Shoir Hamid Olimjon qalamiga mansub yuqoridagi she'riy 'archada hamhuddi shu qofiyalanish tizimini ko'rish mumkin.

So'z – qofiyaning qurilish material. She'riyatda so'zlar tasvir vositalaridek, qofiyada ham so'z, birinchi navbatda, hayotni ifodalaydigan quoldir. Ayni chog'da, so'z qofiya vazifasiga ko'ra, to'la bo'ysundirilgan bo'ladi. Qofiyaning obrazlilik ta'sirchanlik xususiyati ham so'z tanlash san'atiga bog'liq. Shoir milliy til boyligini qanchalik chuqur bilsa, til boyligidan qofiya yaratishda shunchalik mohirona foydalana oladi.

To'rtlik haqida gapirilganda uning boshqa shehriy shakllar – bandlardan farqli jihatlariga ham ehtibor qaratish lozim. "Masnaviydan farqli o'laroq to'rtlik bandda qofiya tartibini turlicha o'zgartirish imkoniyati bor. SHuning uchun to'rtlik bilan yozilgan asrlarda shoirlar o'zlarini ancha erkin his etadilar va faqat qofiyadagina emas, vaznda ham yangi turlar yuzaga keltirishga urinadilar"³⁴.

Ingliz va amerika shehriyatida ham to'rtlik (quatrain) keng tarqalgan janr sanaladi. Ingliz tilli shoirlar asosan to'rtliklarning quyidagi shakllarida ijod qiladilar:

1. *Ballada* (The ballad stanza) Bunday to'rtliklar asosan xalq qo'shiqlari tahsirida yozilgan shehrlarni o'z ichiga olib *absb* tarzida qofiyalanadi.

There lived a wife at Usher's Well,
And a wealthy wife was she;
She had three stout and stalwart sons,
And sent them o'er the sea. (Anon., *The Wife of Usher's Well*)

³⁴ Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 2005. – Б. 233.

Bunday to'rtliklarning asosan, juft misralarigina qo'fiyalanib, toq misralari ochiq qoladi.

2. *Qahramonlik yoki marsiya to'rtliklari* (The heroic quatrain, or elegiac stanza) Ingliz shehriyatida keng tarqalgan mazkur to'rtliklar asosan qahramonlarning mardliklari va g'alabalariga bag'ishlanib, ular marsiya shaklidagi shehrlardir. Odatda ular yambda bo'lib, misralar navbatma-navbat: toq misralar o'zaro, juft misralar o'zaro *abab* tarzida qo'fiyalanadi.

The curfew tolls the knell of 'arting day,
The lowing herd winds slowly o'er the lea;
The 'lowman homeward 'lods his weary way,
And leaves the world to darkness and to me.

(Gray, *Elegy Written in a Country Churchyard*)

3. *Juft qo'fiyali to'rtlik* (One rhyming 'air enclosing another) To'rtlikning boshlanuvchi va yakunlovchi misralari o'zaro, oradagi ikki misra esa o'zaro qo'fiyalanadi. Bu turdagi to'rtliklar o'zining jozibasi va oddiy, ohorli ohangi bilan ahamiyatlidir. Ular ko'pincha *abba* tarzida qo'fiyalanib, zamonaviy shoirlar tomonidan keng qo'llaniladi.

Thy voice is on the rolling air;
I hear thee where the waters run;
Thou standest in the rising sun,
And in the setting thou art fair. (Tennyson, *In Memoriam*)

4. *Uch qatori qo'fiyalanuvchi to'rtlik* (Three rhyming lines) Bunday to'rtliklar *aaba* tarzida qo'fiyalanib, ingliz shehriyatida juda kam ishlatiladi. Bu shakl shoir va tarjimon Eduard Fitjerald ijodida kuzatiladi. U Umar Xayyom ruboiylarini shu shaklda ingliz tiliga o'giran.

Book of Verses underneath the Bough,
jug of Wine, a Loaf of Bread-and Thou.
Beside me singing in the Wilderness-
Oh, Wilderness were 'aradise now! (Fitz Gerald, *The Rubaiyat*)

5. *Ikki misrasi o'zaro qofiyalanuvchi to'rtlik* (Two couplets rhyming quatrain) Bunday to'rtliklar asosan *aabb* tarzida qofiyalanadi.

A Sensitive 'lant in a garden grew,
And the young winds fed it with silver dew,
And it opened its fan-like leaves to the light,
And closed them beneath the kisses of Night. (Shelley, *The Sensitive 'lant*)

6. *To'rt qatori bir xil qofiyalanuvchi to'rtlik* (Four rhyming lines quatrain) Odatda, bunday to'rtliklarda shoirlar qatorlarni bir xil *aaaa* tarzida qofiyalaydilar.

From 'erfect grief there need not be,
Wisdom or even memory;
One thing then learned remains to me,
The woods'urge has a cue of three. (Rossetti, *The Woods'urge*)³⁵

Ko'rinib turibdiki, ingliz adabiyotida to'rtliklarning o'ziga xos ko'rinishlari kam emas. SHunga qaramay, "Qutadg'u bilig" to'rtliklarining inglizcha tarjimalarini vazn va qofiya mutanosibligi asosida qiyosiy tahlil etish bu yo'nalishda bir qator o'zgachaliklar mavjudligini ko'rsatib turibdi. Buni aniq misollar yordamida kuzatishimiz mumkin.

Tapug'chq yaŋqlsa oqqg'u kerək,
Nekukə yaŋqlmqshnq sorg'u kerək.
Yazuqq bar ersə qqnag'u tutub,
Yoq ersə miŋ edgun avqtg'u kerək.(627-628)
Xizmatkor yanglishsa, uni chorlash kerak,
Nima sababdan yanglishganini so'rab bilish lozim.
Gunohi bor bo'lsa, tutib jazolash kerak,
Agar yo'q bo'lsa, ming xil ezguliklar bilan xursand qilish
kerak.

To'rtlikning R.Denkoff tarjimasi:

The wayward servant should be called

³⁵ <http://www.uni.edu/~gotera/CraftOfPoetry/quatrain.html>

And questioned on his fault:
If guilty, 'unished; but consoled,
With countless gifts if not. (60)

Mazmuni:

Itoatsiz xizmatkor chaqirilib,
Aybi uchun so'roq qilinishi kerak.
Aybdor bo'lsa jazolash, aybsiz bo'lsa,
CHeksiz sovg'alar bilan siylash kerak.

Mutarjim to'rtlikni ancha ijodiy va erkin tarzda o'giran. Boshqa ko'pgina hollarda bo'lgani kabi, bu yerda ham toq misralar o'zaro, juft misralar o'zaro (*abab* shaklda) qofiyalanib kelgan. To'rtlikdagi bosh ma'no tarjimada asosan saqlangan. Tarjima qonuniyatlariga ko'ra, shehr tarjimasida "qofiyani qofiyalab" o'girish amri mahol va hatto buning iloji yo'q. SHu bois tarjimada qofiyadosh so'zlar o'zgargan. Asliyatda qofiya *oqqg'u kerak-a, sorg'u kerak-a, avqtg'u kerak-a* tarzida bo'lsa, inglizchada *called, consoled; fault, not* shakliga kirgan. Bu ingliz shehriyatidagi qahramonlik yoki marsiya to'rtliklari (The heroic quatrain, or elegiac stanza)ga xos shakl. Qofiya yaxshi, umumiy mazmun ochilgan, ammo shehrda musiqiy joziba, "Qutadg'u bilig"ning zalvorli va nafis ohangi yo'q. Bunga asliyatda mavjud bo'lgan radifning tushirilishi, ham gorizontal, ham vertikal tarzda qo'llanilayotgan alleteratsiyaning tushirib qodirilishi o'z tahsirini o'tkazib turibdi.

M.Baqoeva asosli tahkidlaganidek "Sheg'r ikki oqim tahsirida harakatga keladi. Birinchi oqim uning mazmuni, yag'ni fikr oqimi bo'lsa, ikkinchi oqim shu mazmuni o'quvchiga mumkin qadar tahsirchan yetkazishga yordam beruvchi nazm oqimidir"³⁶. Yuqoridagi tarjimada fikr oqimi saqlangani holda nazm oqimi sustlashganini ehtirol etishga to'g'ri keladi. Odatda, shakldagi o'zgarish mazmunga ham o'z tahsirini o'tkazadi. Misolimizda asliyatda ancha neytral mavqeda bo'lgan "tapug'chi" tarjimada "servant" so'zi bilan berilgan. Lug'atlarda uning umumiy tarzda "xizmatkor" degan ma'noni anglatishi qayd etiladi³⁷. Ammo

³⁶ Бақоева М. Англия, АҚШ адабиётидан ўзбек тилига шеърлий таржима ва қиёсий шеършунослик муаммолари: Филол. фанлари доктори дисс.... – Т., 2004. – Б.246

³⁷ Англо-русский словарь. Составитель В.К.Мюллер. М.: Русский язык, 1985. – С.655.

tarjimon uning oldidan bitta sifatni ham keltiradi. Bu “wayward – itoatsiz” soʻzidir. Mazkur soʻzning qoʻshilishi bilan baytdagi umumiy maʼnoga bir oz oʻzgarish kiradi. Agar aslyatda gap har qanday xizmatkor ustida borayotgan boʻlsa, tarjimada xizmatkorlarning umumiy tartib-intizomdan chetda turadiganlari – itoatsiz xizmatkorlar ajratib koʻrsatilmoqda. Madomiki, gap itoatsiz xizmatkor haqida borar ekan, uni alohida chaqirib, uning ustidan soʻrov-surishtirish ishlarining olib borilishi mantiq ipini bir ozgina boʻshashtirib qoʻygandek tuyuladi. Zero, aybdor xizmatkorning aybsizligi haqidagi qism bu yerda ortiqcha boʻlib qoladi. SHuning uchun ham “xizmatkor”ning aslyatdagi birorta sifat va epitetsiz qoʻllanishi tabiiy edi. Mazkur sifatning qoʻshilishi bilan, nazarimizda, bu tabiiylikka putur yetgan.

Turkiy shehriyatning janr xususiyatlari ularning shakliy tuzilishi bilan ham chambarchas bogʻliq. Tarjimada bu jihatlarning buzilishi shehrning musiqiy goʻzalligiga soya soladi. Xususan, “Qutadgʻu bilig” toʻrtliklarining qofiyalanish uslubi, baytlarning joylashuvi, ularning ananaviy shehriy tili, vazni, muallif kechinmalarini ifoda etuvchi intonatsiya va musiqaviylik tarjimada aks etmas ekan, ingliz qitobxoni XI asr turkiylariga xos hayot tarzi, bepoyon vodiy va dala-dashtlar nafasidan, chuqur hayotiy tajribalarni oʻzida mujassam etgan falsafiy umumlashma va sharqona hikmatlar ohangidan bebahra qolaveradi. Mazkur jihatlarni oʻzida jamlamagan tarjimalar orqali esa ingliz va amerikaliklar qadimgi turkiy hayot manzarasini hozirgi Angliya yoki Amerika qiyofasida tasavvur etaveradilar.

“Asar musiqasini his qilish, uni tarjimada toʻgʻri tarannum etish asosiy talabdir. Musiqani his qilmagan tarjimon shehrning ruhiga kirolmaydi. Asarning maʼno-magʻzini berish xuddi shu musiqaviy garmoniyani aks ettirish orqali amalga oshadi”³⁸.

R.Denkoff asarning inglizcha nashriga ilova qilgan kirishda quyidagilarni tahkidlaydi: “Toʻrtliklarni shehriy tarzda berishda men asosan ularni umumiy matndan ajralib turishini maqsad qildim, zero, ular boshqalaridan faqatgina qofiyalanishi bilan ajralib turadi. Mening toʻrtliklar tarjimasida koʻproq

³⁸ Саломов Ғ., Комилов Н. Дўстлик кўприклари. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – Б. 126.

erkinlikni tanlashdan maqsadim asliyatga yaqinroq kelish edi”³⁹. Ammo yuqorida tahkidlanganidek, asar to’rtliklari boshqa janrlardagi baytlardan qofiyalanishi bilan emas, balki semantik va kompozitsion jihatdan ham tubdan farq qiladi. Yuqoridagi baytning V.Mey tarjimasi fikrimizni tasdiqlashi mumkin:

A servant grows careless — for him you must send,
And find out the reason for his discontent.
And if he is guilty — then ‘unish him sore.
But if he is not — then reward him once more.(60)

Mazmuni:

Xizmatkor ehtiborsiz bo’lib qolsa, unga odam yuborish kerak,
Uning noroziligi sababini bilish lozim.
Agar aybdor bo’lsa, qattiq jazola,
Ammo aybsiz bo’lsa, uni yana bir bora mukofotla.

Mutarjim shehr sanhatini chuqur egallagani bir qarashdayoq yaqqol ko’zga tashlanadi. Asliyatga xos musiqiylik ustalik bilan qayta yaratilgan. To’rtlik send-*a*, discontent-*a*, sore-*b*, more-*b* tarzida qofiyalanib, har bir qator 11 bo’g’indan iborat. Bu ingliz shehriyatidagi ikki misrasi qofiyalanuvchi (Two cou’lets rhyming quatrain) to’rtlikka xos bo’lgan shaklga to’g’ri keladi. Qofiya (send : discontent; sore : more), turoqlanish (6+5=11; 6+5=11) tahsinga loyiq. Biroq asliyat mazmuniga shikast yetgan. Birinchi misradagi “Yaḥqlsa”(yanglishsa)ni “grows careless – etiborsiz bo’lib qolsa” va “Yaḥqlmqshnq (yanglishganini)ni “discontent - noroziligini” deb tarjima qilinishi natijasida to’rtlikdagi mantiq yo’qolgan. Xizmatkor go’yo nimadandir norozi bo’lib qolgan. Vaholanki, gap xizmatkorning noroziligi haqida emas, balki uning xizmat chog’idagi xatosi ustida bormoqda.

“SHehr ona tili bag’rida paydo bo’ladi va shu til sohibi bo’lgan xalqning zavqu hissiyotini qondirishga xizmat qiladi. U tarjima uchun yozilmaydi, lekin tarjima qilinadi. Boshqa millat kitobxonlari ham undan lazzat olishga muyassar bo’lsinlar deb, tarjima qilinadi”⁴⁰.

³⁹ “Wisdom of Royal Glory” Translation with an Introduction and Notes by Robert Dankoff. –Chicago: The University of Chicago Press, 1983. – P. 35.

⁴⁰ Саломов Ғ., Комилов Н. Дўстлик кўприклари. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – Б. 80.

SHarq shehriyatining shakliy xususiyatlarini g'arb tillariga tarjima qilish mutarjimdan ulkan mahorat talab qilishi tayin. Ayniqsa, uning qofiya va vaznini G'arb tillaridagi muqobil variant bilan berish mushkul. Biroq tarjimachilik tarixidan mahlumki, sharq shehriyatining nodir namunalaridan ko'pchiligi G'arb tillariga muvaffaqiyatli tarjima qilinganki, bu mutarjimlarning yuksak saviyadagi bilim va sanhatlari namunasi sifatida qadrlidir. Bu ma'noda "Qutadg'u bilig"ning ingliz tiliga shehriy tarjima qilinganligi, bu sohada katta imkoniyatlar mavjud ekanligini isbotlab berdi. Asar to'rtliklari R.Denkoff va V.Mey tajribalarida to'laligicha shehriy tarzda qayta yaraldi. Ingliz kitobxoni ularni nazm holatida o'qish imkoniga ega bo'ldi.

Demak, tarjima qilinayotgan shehriy asar g'oyasi va uni o'quvchiga yetkazish yo'llari tarjimon tomonidan yetarlicha his etilsa, asarning o'ziga xos xususiyatlari va undagi uslubiy vositalarni tarjimada qayta yaratish uchun G'arb tillaridagi yetarli imkoniyatlardan unumli foydalanilsa, tarjimaning mavaffaqiyatli chiqishi shubhasizdir.

Umumiy tarzda aytiladigan bo'lsa, tarjima asliyatni boshqa til vositalari bilan qayta yaratish sanhatidir. Qayta yaratilgan adabiy hodisa asliga aynan o'xshamaydi. Asliyatga yaqinlashish darajasi, hech shubhasiz, tarjimonning mahorat darajasi bilan to'g'ri proportsionaldir. Tarjimaning aniqligi uning estetik tahsir qiymati nuqtai nazaridan asliyatga qanchalik yaqinligiga qarab belgilanadi.

3.2. Xos so'zlarni tarjimada qayta uaratish masalasi

Ilmiy adabiyotda xalqlar turmush tushunchalarini ifoda etadigan leksik birliklarni qaysi paytlarda tarjima amaliyotining qanday sinalgan usullari vositasida talqin etish lozimligi haqida yagona fikr uchramaydi. Tarjimaning ijodiy jarayonligi tufayli, bunday fikrning uchrashi ham goho amri mahol. Biroq bayon etilgan ilmiy-tanqidiy fikr-mulohazalar tarjimonning muayyan holatda qanday yo'l tutishi lozimligi haqidagi tasavvurini boyitadi, uning amalda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan turli-tuman tasodifiy tugunlarni echishga ko'maklashadi, unda amaliy mushkulotlarni mohirona engish malakasi hosil qilinadi.

Bunday, kishilar turmush tushunchalarini anglatadigan xos so'zlarni tarjimada adekvat talqin etish asl nusxa milliy xususiyatini kitobxonga to'la-to'kis etkazib berishdek murakkab muammoning eng mas'uliyatli va o'ta mushkul masalalaridan hisoblanadi. Zero, bunday holda tarjimon oldida o'z xalqi uchun notanish, binobarin, nomlari ham tilda mavjud bo'lmagan tushuncha, narsa va hodisalarni tarjima tili sohiblariga to'la anglatish vazifasi ko'ndalang bo'lib turibdi.

O'zbek tilida odam tana a'zolarining nomlari juda ko'p hollarda turli ma'no anglatuvchi iboralar tarkibida asosiy unsur vazifasida keladi. Masalan, "bosh" so'zi quyidagi hollarda asosiy obraz yaratuvchi so'z sifatida birikmalar tarkibida keladi: bosh chayqamoq, bosh tortmoq, bosh qo'shmoq, boshi ochiq, boshidan oyoq, boshga ko'tarmoq, boshi bilan sho'ng'imoq, boshi aylanmoq, boshini aylantirmoq, boshiga etmoq, boshiga urmoq, boshga qilich kelsa ham, boshida danak (yong'oq) chaqmoq, boshidan oshib yotmoq, boshidan soqit qilmoq, boshi yostiqqa etmoq, boshi ko'kda (osmonda), boshini ikkita qilmoq, boshini bir joyga qovushtirmoq, boshini biriktirmoq, boshini olib ketmoq, bosh ko'tarmay, bosh ko'tarmoq, bosh og'rig'i, bosh(i) qotmoq, boshi oqqan (tomonga), bosh suqmoq, bosh egmoq. So'zning ingliz tilidagi muqobil ekvivalenti bo'lmish "head" so'zi ham juda ko'p vaziyatlarda turli-tuman vazifalarda keladi. O'zbekcha "bosh" va inglizcha "head" so'zlarining turli iboralar tarkibidagi vazifalari bir biridan tubdan farq qiladi. Fikrimizni isboti sifatida quyidagi misollarni ko'rib chiqamiz.

HEAD – BOSH - to bare one's head — bosh kiyimni echmoq, to bow one's head — bosh egmoq, to drop, hang, lower one's head — erga qaramoq, to lift, raise one's head — boshni ko'tarmoq (tepaga qarash maqsadida), to move one's head — bosh chayqamoq, to nod one's head — bosh siltamoq, to shake one's head — e'tiroz bildirmoq, to toss one's head — boshini shartta burmoq, to hold one's head high — faxrlanmoq, from head to foot/heel, head to foot — boshdan oyoq, taller by a head — boshdan baland, a good head, strong head — aylanmaydigan bosh (ichib mast bo'lmaydigan), a good head for heights — balandlikda aylanib ketmaydigan bosh, a bad head for heights — balandlikda aylanib ketadigan bosh, win by a head b) bosh og'rig'i (asosan zarba va alkagol ta'sirida) I get one of those blinding heads. — U menya etot chertov pristup golovnoy boli. She was lying down with a head. — Ona lejala s golovnoy bol'yu. 2) a) aql, intellekt, aqliy qobiliyat (layoqat), to use one's head — fahmi etmoq, kallasi ishlamoq, tushunmoq; to cram, fill, stuff smb.'s head (with nonsense) — biror kimning boshini maydachuydalar bilan to'ldirmoq, accounts which he kept in his head — xisob-kitoblarni miyada saqlamoq; to have a (good) head (up)on one's shoulders — elkada aqilli boshni ko'tarib yurmoq; to have an old head on young shoulders — sog'lom fikrlovchi; It is not your fault that you have no head for politics. (G. B. Shaw) — Ne vasha vina, chto vo` sovershenno ne godites` dlya politiki. Siyosatni tushunmasligingiz aybingiz emas. to keep a level head, keep one's head — tinchlikni saqlamoq; to lose one's head — tinchini yo'qotmoq, cool head, level head — sovuqqon, b) bosh – hayot uchun muhim tana a'zosi sifatida; Proofs enough against this scoundrel, Fritz, to cost him his head. — Protiv etogo negodyaya, Frits, dostatochno faktov, chtobo` eto stoilo emu golovo`. 3) a) bosh tasviri - a head of Titian by his own hand — izobrajenie golovo` Titsiana, nabrosannoe im samim b) tanganing old tarafi (bosh tasviri tushirilgan), head(s) or tail(s) — chikka pikka (tangani otganda) Heads I win, (and) tails you lose. — Har qanday vaziyatda men yutaman.; Har qanday vaziyatdja sen yutqazasan. v) yoki pochta markasi (monarx rasmi tushirilgan) 4) soch (boshdagi) I comb'd his comely head. 5) no'xta, hayvon boshiga maxkamlanadigan tasma Syn: headstall 6) kiyik

shoxi 7) a) odam Those wise heads came to the conclusion that there was hope. — O'sha donishlar umid bor degan hulosaga kelishdi. He's a hot head. — On goryachaya golova, goryachiy chelovek. b) sanoq birligi (odamlarni sanashda ishlatiladi) - per head v) chorva boshi fifty head of cattle — ellik bosh chorva g) jonivorlarning noaniq soni Shooting tenants ought to be obliged to wire-in their woods where they kept a large head of rabbits. d) narkoman (morfin ta'sirida o'tirgan kishi);

pot-head – 1) lyubitel' travki (chelovek, bolee ili menee regulyarno pokurivayuhiy marixuanu) Syn: hash-head , tea-head 2) pridurok, tupitsa, bolvan Syn: stupid 2. 3) kontsevaya kabel'naya mufta

pothead – 1) lyubitel' travki (chelovek, bolee ili menee regulyarno pokurivayuhiy marixuanu) Syn: hash-head , tea-head 2) pridurok, tupitsa, bolvan Syn: stupid 2. 3) kontsevaya kabel'naya mufta

tea-head – lyubitel' travki (chelovek, bolee ili menee regulyarno pokurivayuhiy marixuanu) Syn: hash-head , pot-head

teahead - lyubitel' travki (chelovek, bolee ili menee regulyarno pokurivayuhiy marixuanu) Syn: hash-head , pot-head

8) (verxnyaya glavnyaya chast' predmeta) a) udarnaya ili rezhnaya chast' instrumenta, v otlichie ot ruchki, rukoyatki: nakonechnik (копыа, drotika, strelo' i t. p.), cherenok (noja), obux (topora), boek (molota) i dr. b) shlyapka (gvozdy, bolta, shurupa i t. p.), golovka (bulavki), nabaldashnik (trosti) i dr. - v otlichie ot konchika, kontsa v) otnositel'no nepodvizno'y konets mo'shtso', kodoro'm ona prikreplyaetsya k kosti g) lukovitseobraznoe rasshirenie steklyannoy trubki, napr., sharik termometra i dr. d) telo kometo' (v otlichie ot xvosta) e) chast' noto', opredelyayuhaya ee pozitsiyu na notnom stane (v otlichie ot vertikal'noy linii) j) chast' skripki i drugix strunno'x instrumentov, na kotoroy krepyatsya kolki z) verxnyaya chast' smo'chka ili ta chast', gde krepitsya volos smo'chka i) dnihe (bochki, bochonka i podobno'x sosudov); obtyanuto'e kojey osnovaniya barabana k) zamochno'y kamen' (svoda); kapitel' kolonno' l) verxniy brus okonnoy/dvernoy korobki m) otkidnoy verx ekipaja, avtomobilya n)

vereteno (vesla, yakorya) o) obhee nazvanie bolee krupno`x plastinok (obo`kn. ix trinadtsat`b) pantsirya cherepax p) perednyaya luka sedla; ruchka gimnasticheskogo konya 9) a) lyubaya okruglaya ili kompaktnaya chast` rasteniya, obo`kn. na kontse steblya, napr., golovka (tsvetka, chesnoka), kochan (kapusto`, kochannogo salata i t. p.), kolos (zernovo`x), shlyapka (griba), semennaya korobochka (maka) i dr. b) krona ( dereva ) 10) a) pena ( osob. na pive ) b) slivki ( na moloke ) 11) verxushka, verxnyaya chast` (vozvo`shennosti, sooruzeniya, shesta, machto` i t. p.) 12) a) nachalo stranitso`; zagolovok, otdel, rubrika Syn: heading b) gazetno`y zagolovok Scare-heads three inches high announced that the champion athlete was at death's door. — Trexarshinno`e gazetno`e zagolovki krichali o tom, chto chempion po legkoy atletike naxoditsya pri smerti. Syn: headline 13) nazrevshaya golovka naro`va, furunkula ( preim. vo fraze ) come to a head — naro`vat` 14) verxnyaya chast` chego-l. pokatogo: chast` ozera, kuda vpadaet reka; bolee vo`sokiy kray dolino`; izgolov`e krovati; storona mogilo`, gde lejit golova pokoynogo; storona stola, gde obo`chno sidit glava doma I was offered the seat at the head of the table. — Mne predlozili mesto vo glave stola. 15) a) istok, verxov`e reki The head of the Mississippi River is in Minnesota. — Istoki Missisipi naxodyatsya v shtate Minnesota. b) istochnik, nachalo, pervoistochnik ( obo`kn. fountain-head) • Syn: source , origin , beginning 16) a) ; napor, davlenie stolba jidkosti; (inogda) naso`p`b, damba (koto`e vo`derjivayut napor vodo` ) head of water — vo`sota napora vodo` b) vo`sokaya prilivnaya volna 17) (perednyaya chast`, pered ) a) golovnaya chast` (protsessii, kolonno` i t. p. ) The tallest boy stood at the head of the line. — Samo`y vo`sokiy mal`chik stoyal vperedi vsex. b) vneshnyaya ili vo`stupayuhaya chast` sooruzeniya 18) a) perednyaya, nosovaya chast` sudna - by the head - down by the head b) otxojee mesto, gal`yun (na sudne; brit. chasto mn.); amer. tj. ubornaya, tualet (na beregu) 19) mo`s ( v sovr. upotr. preim. v geograficheskix nazvaniyax ) Syn: cape , headland , promontory 20) a) glava, rukovoditel`, nachal`nik titular head — formal`no`y/nominal`no`y direktor department head, head of the department — glava departamenta, nachal`nik otdela the head of the house of Mendoza — glava doma Mendoza Syn: boss , leader ,

chairperson , chief , captain , commander , ruler , principal person , head man b) директор школы (сокр. от headmaster) v) позиция, занимаемая лидером; руководящее положение; преим. во фразе at the head of — во главе The studious girl graduated at the head of her class. — Прележная девочка закончила школу лучшей всех своих одноклассников. - head of the river 21) результат, исход; во`sshaya tochka, кульминация; перелом, кризис to bring smth. to a head — доводить что-л. до кульминации It might bring things to a head, one way or the other. — Тем или ином образом это может во`звать кризис. When will the crisis come to a head? — Когда кризис достигнет переломного момента? But it is time to draw to a head this somewhat lengthened discussion. — Пора подвести эту затянувшуюся дискуссию к решающему моменту. Syn: issue , result , conclusion , summing up , culmination , climax , crisis , peak , extremity , maturity, pitch , height 22) ; руда (чистая); концентрат (во`sshego kachestva) 23) прибол (при лье) •

- do it standing on one's head – делать с легкостью Right, old boy. Leave it to me. I can do this on my head. — Ladno, starik. Ostav' eto mne. Mne eto raz plyunut'.
do it on one's head – делать с легкостью Right, old boy. Leave it to me. I can do this on my head. — Ladno, starik. Ostav' eto mne. Mne eto raz plyunut'.

out of head – 1) из головы Were not all these answers given out of his own head? — Не придумал ли он все эти ответы просто из головы? 2) потерявший голову, обезумевший to go out of one's head — сойти с ума, потерять голову

over head – над головой a roof over their heads — кро`sha над их головами
over smb.'s head – через чьи-л. головы He had been chosen for promotion over their heads. — Он был пово`шен через их головы.
over one's head – во`ше чьею-л. понимая talking over the heads of the company — говорив непонятно для компании

go to smb.'s head – 1) ударить в голову (о вине, крови и т. п.) 2) орывать (об успехе и т. п.)
by the head and ears – грубо, резко, насильно

over head and ears – po ushi

head over ears – po ushi He was head over ears in debt when he married her.

— On bo`l po ushi v dolgax, kogda on na ney jenilsya.

give a horse his head – otpustit` povod`ya

keep one's head above water – 1) derjatsya na poverxnosti, derjatsya na plavu 2) spravlyatsya s trudnostyami

bring to a head – dovodit` ( chto-l. ) do reshitel`noy stadii Matters have been brought to a head in the peace talks; tomorrow they will either succeed or fail. — Peregovoro` o mire vstupili v zaklyuchitel`nyuyu fazu; zavtra oni zakonchatsya libo uspeshno, libo nichem.

head over heels – vverx tormashkami, vverx nogami

make head – prodvigatsya vpered

off one's head - vne sebya; bezumno`y

2. 1) glavno`y, starshiy head physician — glavno`y/starshiy vrach head waiter — metrdotel` Syn: chief , principal , capital 2) verxniy; peredniy 3) vstrechno`y head tide, head current — vstrechnoe techenie head wind — vstrechno`y veter head sea — vstrechnaya volna 4) prednaznachенno`y dlya nosheniya na golove; golovnoy head-dress — golovnoy ubor 3. 1) obezglavlivat` 2) obrezat` vetki, formiruya kronu, podrezat` verxushku ( dereva, kusta; head down ) Syn: top , poll 3) a) snabjat` verxom, verxushkoy, pridelo`vat` golovku to head an arrow — pridelat` nakonechnik k strele b) formirovat`, sostavlyat` vershinu, verxushku tower headed by a spire — bashnya, zakanchivayuhayasya shpilem 4) a) ozaglavlivat`; pomehat` ( obrahenie, imya i t. p. ) v nachalo stranitso` b) nachinat`, otkro`vat` ( spisok, tekst i t. p. ) At the last general election Mr. L. headed the poll with 4,159 votes. — Na poslednix vseobhix vo`borax mister L. vozglavil spisok, nabrav 4159 golosov. 5) formirovat` kolos, kolosit`sya (o zernovo`x ), zavivat`sya (o kapuste; tj. head out, head up) This cabbage heads early. — Etot sort kapusto` rano obrazuet kochano`. 6) brat` nachalo ( o reke ) 7) vozglavlyat`, rukovodit`, upravlyat` (tj. head up) When the president died the vice president was chosen to head the firm. — Kogda umer glava firmo`,

rukovoditʹ firmoy boʻlo porucheno ego zamestitelyu. Syn: be head of , direct , supervise , manage 8) vozglavlyatʹ, lidoivatʹ, boʻtʹ v pervoʻx ryadax; prevosxoditʹ The Cambridge crew took the lead from the first, were never headed, and won by upwards of three lengths. — Komanda Kembridja s samogo nachala zaxvatila liderstvo, uderjivala ego i voʻigrala s preimuhestvom v tri korpusa. Syn: lead , go at the head of , precede , lead the way , be in the vanguard , surpass , outdo , excel 9) napravlyatʹ (v kakuyu-l. storonu) The Fram lay moored with her bow heading west. — Fram stoyal na yakore, povernuv nos na zapad. Head the boat toward shore. — Napravʹ lodku k beregu. Syn: face , front 10) napravlyatʹsya, derjatʹ kurs, sledovatʹ When the rain stops let's head for the picnic grounds. — Kogda dojdʹ prekratitsya, davay otpravimsya k mestu piknika. Syn: steer , aim 11) napravlyatʹsya navstrechu; stalkivatʹsya; atakovatʹ s fronta He has to cover his face with a muffler, and head the driving snow. — Emu prixoditsya zamatoʻvatʹ litso sharfom i dvigatʹsya navstrechu slepyahemu snegu. 12) meshatʹ, prepyatstvovatʹ (dvijeniyu; tj. head off, head back) To head my rival off I indulged in a tremendous flirtation. — CHtoboʻ pomeshatʹ svoemu soperniku, ya vovsyu pustilsya flirtovatʹ. 13) ogibatʹ, obxoditʹ (reku, ozero i t. p.) It is shorter to cross a stream than to head it. — Boʻstree perepravitʹsya cherez ruchey, chem obxoditʹ ego. 14) otbivatʹ myach golovoy; igratʹ golovoy • -

head back – pregrajdatʹ (putʹ)

head for – 1) dostigatʹ It looks as if the firm is heading for another record year! — Kajetsya, v etom godu nasha firma postavit ocherednoy rekord! 2) riskovatʹ, navlekatʹ na sebya You're heading for an accident if you drive after drinking alcohol. — Esli toʻ sadishʹsya pyanoʻm za rulʹ, toʻ riskueshʹ popastʹ v avariyu. Syn: ask for , look for

head off – prepyatstvovatʹ; pomeshatʹ; pregrajdatʹ (putʹ); otrajatʹ (napadenie) to head off a quarrel — predotvratitʹ ssoru

head out – dostigatʹ kulʹminatsii

head up - 1) davatʹ zagolovok, shapku (v gazete i t. p.) One of my jobs at the newspaper office was to head up the page before it was printed. — Kogda ya

rabotal v gazete, v moi obyazannosti vxodilo pridumo`vatъ zagolovki k polosam.

2) vozglavlyatъ, rukovoditъ, upravlyatъ Company requires capable and professional person to head up real estate department. — Firme trebuetsya sposobno`y professionalno`y chelovek, koto`ro`y mog bo` vozglavitъ otdel nedvijimosti.

Ko`rinib turibdiki “bosh” so`zining ingliz va rus tillaridagi ma`nolari o`zbek tilidagiga nisbatan ko`proq. Xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan so`zlar shubhasiz badiiy yodgorliklarning milliy bo`yog`ini, uning o`ziga xosligini tashkil etadi. Asarning milliy fazilatini belgilaydigan yana shunday omillar ham uchrab turadiki, ular xalqlarning milliy-madaniy ruhiyati bilan bog`liq bo`ladi. Bunday xususiyatlarning tarjimada e`tibordan soqit qilinishi pragmatik adekvatlikning yaralmay qolishiga olib keladi. Masalan, Farg`ona vodiysida yaqin o`tmishgacha yosh otaning birinchi farzandini o`z ota-onasi oldida qo`liga olib suyushi, erkalatishi nokamtarlik, odobsizlik, uyat hisoblangan, yoki Samarqand va Buxoro shaharlarining tojikzabon eski shahar qismlarida hali-hanuzgacha mo`min-musulmonligi kuchli ayrim xonadonlarga biror ehtiyoj uchun ichkari hovliga taklif etilgan mulla, mahalla oqsaqoli yoki biror obro`-e`tiborli, o`qimishli shaxs islomiy odob va axloq an`anasiga rioya qilgan holda, eshikni taqillatib, “Mardonami?” (ma`nosi: xotin-xalaj ochiq-sochiq yurishmayaptimi, erkaklar bemalol kiraverishi mumkinmi) degan savol bilan murojaat qiladi. Ichkaridan u “Ha, mardona, marhamat qilsinlar” javobini eshitgach, eshikni ochgan kishi taklifga ko`ra ichkariga kiradi.

Keyingi yillarda O`zbekiston televideniesi orqali Meksika, Brazilya, Turkiya, va Koreya kinoseriallari namoyish etilmoqdaki, bu filmlarda hayoti tasvirlanayotgan xalqlar urf-odatlarini, ruhiyati kabi qator jihatlar tomoshabin e`tiborini o`ziga tortmay qolmayapti. Jumladan, uyiga tashqaridan kirib kelgan kishiga “Siz bu erda nima qilib yuribsiz?”, “Siz nima uchun bu erga keldingiz?” (filmlarni Rossiya telekanali orqali ham ko`ramiz: ularda “Chto vo` zdesъ delaete?”, “Zachem vo` syuda prishli?” deyiladi. Ruscha tarjimalarning asliga to`g`riligiga shubha qilmaymiz) deb murojaat qilishadi. Bunday muomala film

sohiblari uchun odatiy bo'lgani uchun hech qanday e'tirozga sabab bo'lmaydi. Ammo o'zbek odatida eshigiga yuzlangan har qanday kishiga avvalo "Keling!" deb, uni bunga ehtiyoj bo'lmagan taqdirda ham ichkariga taklif etadi. Bu xalqimizning mexmondo'stligi bilan bog'liq milliy an'anadir. Kelgan kishini ichkariga kiritish niyati bo'lmagan taqdirda ham baribir avval "Keling!" deyiladi-yu, so'ngra "Xo'sh, hizmat!" deb unga murojaat qilinadi. Bunday payitda "keling" so'zi muloqotga samimiylik baxsh etib, kelgan kishining dilini yumshatadi, uning xijolatchilikdan chiqaradi. Binobarin, bunday an'anaviy tus olgan o'zbekona rasm-rusmlarni tarjimada bekami-ko'st aks ettirish xorijiy kitobxon tasavvurini xalqimizning o'ziga xos hayot tarzi bilan boyitadi. Abdulla Qahhorning "Sinchalak" qissasida tandirga o't yoqayotgan Kifoyatxonning hovliga kirib kelgan Saidani o'zbekona odobga ko'ra "keling!" deb qarshilashi va bu lutfning ruscha tarjimada o'z aksini topmay qolgani muallif tomonidan ataylab aks ettirilgan milliy xususiyatni yo'qqa chiqargan.

Xalqlar turmush tushunchalarini ifoda etadigan lisoniy vositalar tarjimasi bo'yicha hanuzgacha bizda ham, xorijiy mamlakatlarda ham tarjima amaliyoti ravnaqi uchun ozmi-ko'pmi xizmat qilishi uchun mumkin bo'lgan jiddiy tadqiqotlar yaratilmaganligi tufayli mazkur mavzuga oid qator masalalar o'zining ilmiy amaliy echimini kutmoqda.

Rus tarjimashunosi professor A.V.Fedorov⁴¹ va Bolgariyalik olimlar Sergey Vlastov va Sider Florinlarning⁴² ushbu mavzuga bag'ishlab yozgan asarlari masalani atroflicha yoritishdan ko'ra ilmiy jamoatchilik e'tiborini mazkur muammoga qaratishga ko'proq urunishgan.

Tarjimonni xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan xos so'zlar ma'no va shakllaridan ko'ra ko'proq ularning muayyan kontekstlarda o'tab keladigan vazifalarini qayta yaratish masalasi mashg'ul qilmog'i darkor. Bu san'atkorni asl nusxadagi xos so'zlarni beasos tarjima matniga ko'chirish yoki mumkin bo'lmagan taqdirda ham uoarni tarjima tilidagi xos so'zlar bilan almashtirib qo'yish xavfidan saqlab qoladi. Tarjima amaliyotiga vazifaviy uyg'unlik nuqtai nazaridan

⁴¹ А.В.Федоров. Основы общей теории перевода. Издательство «Высшая школа», 1968, стр. 181-188

⁴² Сергей Влахов и Сидер Флорин. Непереводимое в переводе. Сб. «Мастерство перевода», 1970.

yondashish asliyatdagi bunday ifoda vositalarining hajm, vazn, miqdor, xislat, xususiyat va vazifa aniqligini qayta yaratadi, shu bilan birga tarjimaning keng kitobxon ommasiga yaxshi tushunarli bo'lishiga erishish imkoniyatini beradi.

Xos so'zlarni ona tiliga o'girishda avvalo ularning muayyan kontekstlarda o'tab kelayotgan axboriy va uslubiy vazxifalarini aniqlash, so'ngra tarjima tilida ularga har jihatdan mos, ayni payitda shu til me'yori va madaniyati darajasidagi lisoniy vositalar tanlash zarurati tug'iladi.

Milliy tushunchalarni ifoda etadigan xos so'zlarning ayrimlari aslyat mansub bo'lgan tildan tashqari yana qator xalqlar lafzlarida uchrashi, jumladan tarjima tili lug'at zahirasiining ham tarkibiy qismi hisoblanishi mumkin. Bunday so'zlar hudud, turmush sharoit jihatlaridan bir-birlariga yaqin, doimiy munosabat va muloqotda bo'lib turadigan xalqlar lafzida ko'proq uchraydi. Bu tarjimonni amaliy qiyinchiliklardan xalos etadi. Kavkaz va kavkaz-orti xalqlari, rus-ukrain-belaruslar, o'zbek-qozoq-qirg'iz-turkman va tojiklar uchun umumiy bo'lgan ko'pgina milliy xususiyatli so'zlar shular jumlasidandir.

Muayyan xalq turmush tushunchalarini anglatadigan ko'pchilik xos so'zlarning ma'nolari va o'taydigan vazifalari mamlakatlarning o'zaro madaniy, iqtisodiy, siyosiy aloqalari natijasida qator xalqlar vakillariga, shu jumladan tarjima tili sohiblariga ham tanish bo'lib qoladiki, tarjimonlar bunday so'zlarga o'z tillarida muqobil lisoniy vositalar qidirib yurmasdan, ularni transliteratsiya yo'li bilan talqin etaveradilar.

Transliteratsiya usulidan foydalanishning asosiy sababi aslyatda qo'llanilgan milliy xususiyatli lisoniy vositalarning tarjima tilida mavjud bo'lmaganligi tufayli aslyatningmilliy xususiyatini tarjima tili sohiblariga xos xususiyat bilan almashtirib qo'yish yoki tarjimani umuman bunday xususiyatdan mahrum etish kabi holatlarga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir.

SHunday qilib, transliteratsiya xalqlar turmush tushunchalarini aks ettiradigan xos so'zlarni tarjimada talqin etishning eng samarali usullaridan bo'lib, uning yordamida aslyatning milliy xususiyatnin siqiq holda talqin etiladi.

Tarjima tilida goho asliyatdagi lisoniy vositalar ma'nolariga ma'lum darajada yaqinroq mazmunli birliklar uchrasada, ular o'zlarining shartli muqobillaridan yo xislat-xususiyat yoki shakl-hajm-miqdor jihatlaridan farqlanadilarki, bu tafovut ularning tarjimada o'zaro almashinuviga yo'l qo'ymaydi. Masalan, asliyat mansub bo'lgan xalqqa xos pul hamda boshqa o'lchov (masofa-uzunlik-sig'im-og'irlik) birliklari, ro'zg'or ashyolari, kiyim-kechak, egulik-ichkulik kabi ko'pgina tushunchalarni anglatadigan so'zlarni transliteratsiya yo'li bilan talqin etish asarda aks etgan o'ziga xos muhim va sharoitning kitobxon ko'z oldida ochiq-oydin jonlanishini ta'minlaydi. Amerika Qo'shma SHtatlari "dollar"ning, ingliz "funt sterling"ning, nemis "marka"siyu xind "rupiya"sining transliteratsiya qilmasdan, o'zbek "so'm"i bilan almashtirib qo'yilishi, AQSH "brendi"si, ingliz "viski"si, yapon "sake"si, meksika "abardien"ining rus "vodka"si orqali talqin etilishi ingliz boshiga "shlyapa" o'rniga o'zbek "do'ppi"sini, egniga "pal'to" yoki "plashch" o'rniga "to'n" yoki "yaktak" kiygizab qo'yish bilan barobardir. Binobarin, bolgariyalik olimlar Sergey Vlastov va Sider Florinlarning A.P.Chexovning "Vanka" xikoyasi tarjimonni vodkani bolgar ichimligi "rakiya" bilan almashtirmaganlikda ayiblashlariga qo'shilib bo'lmaydi.

Asosli transliteratsiya kitobxon tasavvurini boyitadi, uning tili lug'at zahirasini kengaytiradi. Masalan, ruscha "tantsevat's" so'zi o'zining birgina ma'nosi bilan o'zbekcha "raqs tushmoq" birikmasiga mos ekvivalent bo'la olardi. Uning boshqa bir ma'nosi – erkak va ayolning belu qo'l ushlab davrada aylanishini, bu usulda raqs tushish o'zbeklarga xos bo'lmagani tufayli o'zbek tilida o'z ekvivalentiga ega emas. Mazkur so'zni transliteratsiya usulida talqin etish esa o'zbek tili lug'at boyligini kengaytiradi. Hozirgi umumxalq tili lug'at tarkibidan o'rin olgan "tansa qilmoq" birikmasi azaldan o'zbekcha "raqsga tushmoq" birikmasi bilan sinonimik qator hosil qilgani holda, omma tasavvurini boyitadi. Yoki aksincha "podtyajka" so'zini "shimni ko'tarib, tutib turish uchun ikki elka osha tortib qo'yiladigan tasma" deb tarjima qilinishi ham o'quvchini jig'iga tegadi ham so'zni umuman tushunmay qolishi mumkinligi xavfini tug'diradi.

U o'zini ingliz podtyajkasiga osib o'ldirishiga bir baxya qolgandi. (Picture of Dorian Grey) ushbu tarjimada tarjimon "ingliz" so'zini qo'shish orqali pragmatik adekvatlika juda moxironi erisha olgan.

Qarta o'yining "duraki" yoki "podkidnoy" turi o'zbek jamoatchiligiga ma'lum emas edi. Mazkur o'yinni o'rganish bilan xalqimiz uning nomlarini ham o'zicha – transliteratsiya yo'li bilan qabul qildiki, endilikda mazkur so'zlar ushbu nutqiy vaziyatda fikr bayon qilishning zaruriy vositalari sifatida xizmat qilmoqda. Lekin ingliz tilidagi "According to Hoyle", "Ace up one's sleeve" singari frazeologik iboralar rus tiliga ham o'zbek tiliga ham singib ketolmadi. Ularning o'zbekchada biror yaqinroq muqobil ekvivalenti ham yo'q. "According to Hoyle" frazeologizmi "karta o'yinini o'rnatilgan qoidalarga asosan o'ynamoq" ma'nosini beradi. Masalan:

According to Hoyle, in this game you can't pick up more than one playing card. This doesn't seem ethical to me. Are you sure that what we are doing is According to Hoyle?

Edmond Hoyle karta o'yinlari qoidalarini ishlab chiqqan mashxur ingliz eksperti bo'lgan. "Ace up one's sleeve" frazeologik iborasi esa engida tuzi bor bo'lmoq, (tuz o'yinida eng kuchli karta xisoblanadi) uni engini ichida yashirib o'yinga kirgan kishi esa muvafaqqiyatga erishishning noqonuniy lekin samarador usuliga ega sanaladi. Bu ibora poker o'yinida boshqalarni axmoq qilish niyatida engiga ortiqcha tuz yashirib oladigan kishilarga nisbatan qo'llanilgan.

It looks like Joanne is going to lose, but I wouldn't be too sure. She may have an ace up her sleeve.

"Makler", "biznes", "spikker", "killer", "kompyuter", "internet", "menejment" kabi ko'plab yangi so'zlar ham o'zbek tiliga transliteratsiya usuli bilan kirib keliishi bilan lug'at boyligimizni yanada boyidi.

Shunday qilib tarjima amaliyotining transliteratsiya usuli milliy tillar boyishiga keng yo'l ochgani holda, ularning fikr bayon qilish imkoniyatini oshiradi, adekvat, shu bilan birga asliyat milliy bo'yog'ini kitobxon ko'z oldida aynan jonlantiradigan ifodalar vuzudga keladi.

Xozirgi kunda o'zbek tili jahonning boy va qudratli tillaridan biriga aylangan ekan, uni bu darajaga etkazgan omillardan biri lug'at tarkibidagi ko'pchilik o'zga xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan lisoniy vositalarning transliteratsiya usuli bilan qabul qilinib, tilning har qanday nozik fikrni ham ifoda eta olishi layoqatini oshirib yuborganidir.

Ammo ba'zan transliteratsiya usuli ayrim tarjimonlar tomonidan suiiste'mol qilinadi. Ular milliy bo'yoqdan xoli bo'lib, tarjima tilida o'zlarining ma'no va vazifalari jihatlaridan uyg'un ekvivalentlarga ega bo'lgan lisoniy vositalarni ham mazkur usul yordamida talqin etadilarki, bu hol kitobxonning bayon qilingan fikrni anglashini mushkullashtiradi. Masalan, o'zbek tilidan ruschaga o'g'irligan qator asarlar tarjimasida "rais", "hammom", "aka", "uka", "yor", "eshak" kabi ko'pchilik milliylikdan xoli so'zlarning milliy xususiyatli hisoblanib, betarjima qoldirilishi tarjimonlarning milliy xususiyatni o'zgacha tasvvur etishlaridan darak beradi.

O'zbek tilidan ruschaga o'g'irilgan asarlar yoki dublyaj qilingan filmlar personajlarining goho o'zaro "zdrastvuyte", "dobroe utro", "dobro'y den", "dobro'y vecher" tarzida emas, balki "salom", "assalomu alaykum" deb salomlashishlarining guvohi bo'lyapmiz. Vaholanki, o'zbekcha "salom", "assalomu alaykum" shakliyalari hisoblanadilar.

O'z-o'zidan ma'lumki muayyan xalq turmush tarzini ifoda etadigan so'zlarga bunday tushunchalarga ega bo'lmagan xalqlar tillariga betarjima – asliyatdagi shaklida o'tkaziladi, shu tariqa tarjimada muallif matnining milliy bo'yog'i adekvat talqin etiladi. Masalan, "taxmon", "xo'rjun", "palov", "paranji", "supa", "sumak", "nos", "ketmon" kabi o'zbeklar turmush tarziga xos ifoda vositalarini bunday tushunchalarni anglatadigan lisoniy birliklarga ega bo'lmagan ingliz va rus xalqlari tillariga qilingan o'g'irmalarida betarjima aynan keltirilishi asliyatning milliy xususiyatini saqlab qolish bilan birga, tarjima tillari lug'at tarkibi kengayishi uchun zamin yaratish imkoniyatini beradi.

Sharq g'azaliyoti maftuni bo'lmish buyuk olmon shoiri Gyote o'z tiliga nafaqat "g'azal" so'zini tarsliteratsiya vositasida olib kirdi, balki shu janrda o'zi ham ijod qildi va boshqa vatandoshlarini ham bunga da'vat etdi.

Vazifaviy uyg'unlik haqida gap ketar ekan, shuni qayd etish lozimki, asarlarida SHarq hayoti tasvirlanayotgan ayrim o'zga millat yozuvchilari ham o'z tillarida mavjud qator lisoniy vositalar o'rniga, ehtiyoj sezmasa-da, ularning lug'aviy ekvivalenti bo'lmish sharqona so'z va so'z birikmalarni qo'llaydilar. Bu so'zlar, hamma vaqt ham mualliflar istagiga bo'ysunib, sharqona bo'yoqni yaratavermaydi, Chunki ular ko'pincha hech qanday qo'shimcha mazmun yoki milliy bo'yoq kasb etmasdan, o'zlari mansub bo'lgan tillarning axboriy vazifasi, shu bilan birga boshqa tilda o'z lug'aviy ekvivalentlariga ega bo'lgan vositalari hisoblanadi. M.SHeverdin qalamiga mansub "Etti baloi azim" romanining birinchi varaqlar ekanmiz, hayrat alomatini ifoda etib, rus tilida "Boje moy!" lug'aviy ekvivalentiga ega bo'lgan "tavba!" so'zini, "zdrastvuyte, tovarihi" shaklida keltirmasdan, "salom, rafiki" tarzida berilgan birikmani uchramizki, bu ifoda vositalari asar tili sofliğiga, madaniyatiga so'zsiz putur etkazadi.

V.Shekspirning "Hamlet" tragediyasida ko'pchilik personajlar "Hamlet"ga "my lord" deb murojaat qilgan ekanlar, bu o'rinda o'zbeklar albatta "shahzodam" so'zidan foydalanishni ma'qul ko'radilar. Ammo o'zbek tarjimoni rus san'atkori ta'sirida so'zning transliteratsiya yo'li bilan "milord" shaklida talqin etadiki, mazkur so'z keng kitobxon ommasiga tushunarli emas. "Milord" so'zi inglizxabon xalqlar bilan ko'p asrlardan buyon munosabat va muloqatta bo'lib kelgan ruslarga birmuncha tushunarli bo'lganligi uchun M.Shayxzoda tarjimasiga asos bo'lgan ruscha tarjimaga e'tiroz bildirmaslik mumkin. Ammo qayd etish lozimki, asarning boshqa bir ruscha tarjimasida (M.L.lozinskiy qalamiga mansub) "milord" emas, balki "moy prints" birikmasi ma'qul ko'riladi.

Asliyat tili muhitini yaratish maqsadida tarjima tilida muqobil ekvivalentlari bo'lmagan lisoniy vositalarni hamma vaqt transliteratsiya yo'li bilan beraverib bo'lmaydi. Tarjima tili lug'at tarkibidan o'rin olmagan vositalar aksariyat hollarda kitobxonga asliyatda bayon etilgan fikr haqida to'g'ri tasavvur berishga ojizlik

qiladi. Transliteratsiya usuli ayniqsa miqdoriy tushunchalarni o'ziga xos tarzda ifoda etadigan inglizcha "a dozen" (on ikki), "a score" (yigirma) so'zlari talqinida o'zini oqlamaydi. Masalan, "a dozen" so'zi turli kontekstlarda o'zining moddiy-mantiqiy ma'nosiga nisbatan ko'proq hissiy mubolag'a yaratish hamda "ko'p" ma'nosini chama orqali ifodalash vazifalarini o'tab keladiki, uning lug'aviy ekvivalenti bo'lmish o'zbekcha "o'n ikki" soni aniq miqdornigina anglatadi. O'zbekcha son inglizcha "a dozen" singari badiiy nutq tarkibida o'zining moddiy-mantiqiy ma'nosidan mavhumlashib, turli-tuman uslubiy vosita va priyomlar tarkibida majoziy ishlatilishi xususiyatiga ega emas. Bunday nomuvofiqlik inglizcha so'zni o'zbek tiliga faqat transliteratsiya yo'li bilangina talqin etish lozimligini bildirmaydi. O'zbek tilida mantiqiy ma'nosidan tegishli kontekstlarda uzoqlashib, mazkur so'z ma'no va vazifasini adekvat aks ettirgan "o'n", "o'n chog'li", "o'n-o'n besh" sonlari mavjudki, tarjima jarayonida ulardan unumli foydalanish imkoniyati bo'lsa-da, goho tarjimonlar so'zni transliteratsiya yo'li bilan berib, shakl va mazmun mutanosibligiga putr etkazadilar. Shekspirning "Otello" tragediyasidagi dialog tarkibida "a dozen" so'zi hissiy mubolag'a yaratish uchun qo'llanilgan ekan, uning ruscha tarjimasi lug'aviy ekvivalenti yordamida adekvat jaraglagan. Chunki rus tilida bunday tushunchani anglatadigan muqobil lisoniy vosita – "dyujina" mavjud. Ammo o'zbekcha matndagi ruscha tarjimadan ko'chirilgan "dyujini" so'zini nutqimiz madaniyati adekvat vosita sifatida qabul qila olmagan:

Dezdemona: I don't think there is any such woman.

Emilia: Yes, a dozen – Oth, 111.

Dezdemona: Edva ly naydetsya xotya odna takaya.

Emiliya: Ix dobraya dyujina – VSH, 505.

Dezdemona: Shunday xotin brligiga hech ishonmayman.

Emiliya: Bundaylardan dyujinlab topiladi – USH, 309.

Bu erda Emilyya eriga xiyonat qiladigan xotinlarni istagancha topish mumkinligini mubolag'ali bayon etgan ekan, bunday vazifani o'zbek tilida "o'nlab" soni ifoda eta oladiki, tarjimon mavjud imkoniyatdan foydalanmagan.

"So'na" romanida Galli Jemaning talant va iste'dodini orttirib: She is a born conspirator, worth any dozen of us – G, 106.

tarzida baholagan ekan, rus tarjimoni "a dozen" ni "dyujina" so'zi orqali talqin etib, pragmatik adekvatlikka erishgan bo'lsa:

Ona prirojdennaya zagavorhitsa, stoyahaya dobroy dyujino` takix, kak mo` – Ov, 77.

O'zbek tarjimoni Mirzakalon Ismoilov asarning uchala tarjimasida ham adekvat ifoda eta olmagan. Asarning 1934 va 1936 yillarda amalga oshirilgan tarjimalarida "dyujina" so'zining tarsliteratsiya qilinishi kitobxonning muallif maqsadini anglashini qiyinlashtirgan bo'lsa, 1956 yildagi tarjimada mazkur so'zning aniq miqdorini anglatadigan son yordamida o'girilishi muallif nazarda tutgan mubolag'ali ifodani uslubiy betaraf bayonga aylantirib qo'ygan:

1. Jemma siyosiy faoliyat uchungina tug'ilgan, u bizdakalarning bir dyujinamizga to'g'ri keladi – S, 1934, 100.

2. U tug'ma inqilobchi, bizdakalarning o'n ikkitasiga bas keladi – S, 1956, 93.

Asliyatdagi "a dozen" va uning ruscha tarjimasi "dyujina" so'zi o'zining aniq-miqdoriy "o'n ikki" ma'nosida ishlatilmasdan, fikrning mubolag'ali bayoni uchun xizmat qilayotganligi tufayli o'zbekcha tarjimada "o'n" sonidan foydalanish asliymonand ifodani yuzaga keltirgan bo'lardi. Bu borada qozoq san'atkorining tajribasi ibratlidir:

Ol jaso'ro'n jo'mo's jurgizu ushin tug'an adam, bo'l joninde bir ozi bizdin ono'mo'zg'a tato'ydo' - Beg, 93.

Ayrim nutqiy vaziyatda "a dozen" va "dyujina" sonlari "ko'p" ma'nosining chama orqali ifodasi uchun ishlatiladi. Bunday hollarda ham transliteratsiya usuliga murojaat qilinmaydi, balki ularga o'zbek tilida "o'ntacha" chama hamda chama ma'no belgisini ifodalovchi "o'n-o'n besh" juft soni vazifaviy mos keladi.

Xulosa qilib aytganda, asliyat sohiblari turmush tushunchalarini aks ettiradigan lisoniy vositalarning tarjima tilida uchramasligi, tarjima tili vositalarining esa asliyatdagi shartli muqobillaridan yo xislat-xususiyat, yoki shakl-hajm jihatidan o'zgacharoqligi, yoki ularga mutlaqo o'xshamasligi mazkur tillar vositalarini tarjimada bir-birlari bilan almashtirish imkoniyatini bermay, tarjimonni transliteratsiya usuliga murojaat qilishga da'vat etadi. Ammo ushbu usuldan barcha mushkuliylar holatlarda foydalanaverib bo'lmaydi: tarjima tili lug'at tarkibi uchun begona lisoniy vositalar ko'pincha bayon etilgan fikr haqida to'g'ri tasavvur yaratishga ojizlik qilgani holda, tarjima tili madaniyatiga putr etkazadi. Bunday payitlarda muammo tarjima amaliyotining boshqa qator usullari, jumladan ikki til lisoniy vositalarining vazifaviy uyg'unligini qayta yaratish orqali amalga oshiriladi.

Qo'shimcha vazifali "gapiruvchi" nomlar, diniy-tarixiy va afsonaviy shaxslar hamda g'ayritabiiy kuchlar, diniy-tarixiy kitoblar nomlari tarjimada ikki til vositalarining vazifaviy uyg'unlikdan tashqari, yana har qaysi tilda qabul qilingan shakllari hamda talaffuz an'analarini hisobga olishni ham taqazo etadi.

Har bir badiiy yodgorlik muayyan davr va xususiyat tasviriga bag'ishlanar ekan, tarjimon zimmasiga o'sha ruhni asliymonand tarzda aks ettirish mas'uliyati yuklanadi. Tarjima jarayonida ushbu talabga rioya qilmasdan, iste'moldagi lug'atlarga tayanib ish ko'rish adekvat tarjima yaratish tamoyiliga zid holda, muallif matnini zamonaviylashtirib qo'yishga olib kelsa, milliy xususiyatli lisoniy vositalarni beasos shunday xususiyatdan xoli bo'lgan birliklar yoki tarjima tili sohiblariga xos lisoniy vositalar bilan almashtirib talqin etish muallif matnini milliy asosdan mahrum etadi.

Tarjimon mutaxassislar tayyorlovchi kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan shunday bir mashqlar to'plamlari yaratilishi zarurki, bu kitoblardagi mashqlarda milliy xususiyatli lisoniy vositalar ishtirokidagi gaplar taxliliga aloxida e'tibor qaratiladi. Talabalar bitiruv malakaviy ishlari uchun ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan adabiyotlarning originalini topishga ko'pincha qiynalishadi. Bu esa ularning ilmiy izlanish imkoniyatlarini chegaralab qo'yadi. Axborot resurs

markazlarini shunday adabiyotlar bilan boyitish mutaxasis tayyorlash jarayonini yanada izchillashtirgan bo'lardi. Yana bir taklif, talabalarga ingliz tilidagi asarlardan tarjimalar qilish kabi ijodiy ish topshiriqlari ham berib borilishi maqsadga muvofiqdir. Bir asarni bir necha talaba tomonidan tarjima qilinishi ularni o'zaro muloqotga kirishga undaydi, va bu kutilgan natijani berishiga umid qilaman.

3.3. Obrazli lisoniy vositalar va ularni tarjimada qayta yaratish

Q.Musayevning “Tarjima nazariyasi asoslari” kitobida o’zaro muloqat nafaqat uslubiy betaraf lisoniy vositalar, balki brazli, hissiy – ta’sirchan til birliklari ham faol amalga oshirilishi aytiladi. Zero, jonli nutq tabiatan rang–barang badiiy–tasviriy vositalar, obrazli lisoniy birliklar his-tuyg’uni ifodalovchi so’z va iboralar bilan to’lib–toshgan bo’lib, ular badiiy yodgorlik tilining jozibadorligini, ta’sirchanligini, xalqchiligini va o’ziga xos milliy hususiyatini yuzaga keltiradi.⁴³

Obrazlilik asosan lisoniy vositalar lug’aviy– mantiqiy va kontekstual ma’nolarinig o’zaro munosabatga kirishuvi zaminida paydo bo’lib, nutqning ta’sirchanligi va jozibadorligini vujudga keltiradi, ta’sir quvvatini oshiradi, fikrning yanada mukammalroq va taranroq ifoda etilishiga ko’maklashadi.⁴⁴

Lisoniy vositalarning hissy–ta’sirchan ma’nolari lug’viy–mantiqiy ma’nolarida farqli o’laroq, his–xayajon ifodasi uchun qo’llanilgan holda so’zlovchining hayajonli holatini his–tuygusini, atrofdagi voqea–hodisalarga munosabatini aks ettiradi. Misol uchun: “Baxti qaro Kerri” asaridagi Kerriga berilgan his–xayajon ifodasida quyidagicha keltirilgan:

U ichiga chiroq yoqsa yorishmaydigan holatda begona kishilar to’dasida ketarkan kimdir tirsagidan tutib, orqasiga qaratdi.

Yoki mana bu misolga qarasak

Inglizchada:

O’zbekchada:

Kerri bu mulozamatlardan erib ketib, beihtiyor og’zining tanobi qochdi.

Ushbu yuqorida keltirilgan misolimizda Kerrining xis – hayajon tuyg’usini tarjimon ko’rsatib beraolmagan. Sababi o’zbek tilida “og’zini tanobi qochmoq” frazeologik iborasi “biror nimadan ko’ngli behuzur bo’lmoq” ma’nosini anglatadi. Nazarimda mazkur gapni quyidagicha talqin etsak to’laqonliroq natijaga erishishimiz mumkin bo’lar edi.

⁴³ Q.Musayev B. 150.

⁴⁴ Tarjima nazariyasiga kirish(Q.Musayev)

Obrazli hamda his-xayajonni ifodalovchi lisoniy vositalar badiiy asarning o'ta muhim va ajralmas badiiy-estetik vositalari ekanligi tufayli tarjima tilida teng qiymatli lisoniy vositalar tanlash yo'li bilan ularni tarjimada mazmuniy va vazifaviy bekami-ko'st aks ettirish badiiy nutq xususiyatining asliy monand talqiniga olib keladi. Lisoniy vositalarni ona tiliga adekvat talqin etish tarjima amaliyotining juda muhim, shu bilan birga o'ta murakkab muammolaridan xisoblanadi. Tarjimonlar hissiy-ta'sirchan lisoniy vositalarni o'zbek tiliga o'g'irishda ancha-muncha xato va kamchiliklar yo'l qo'yadilarki, bu hol nutqqa alohida joziba va ta'sirchanlik baxsh etuvchi mazkur til birliklarining tabiatan murakkabligi bilan bog'liqdir.

Hissiy-ta'sirchan lisoniy birlikla o'z uslubiy vazifalariga ko'ra aksariyat tilning og'zaki nutq janrga taalluqli vositalaridirlarki, ularning bunday hususiyti tarjimon zimmasiga nafaqat ularga hos uslubiy bo'yoqni - og'zaki nutq janriga oidlik hususiyatini, balki ifodaning hissiy- ta'sirchanligini ham qayta yaratish vazifasini yuklaydi. Muayyyan hayajon turli tillarda turlicha o'ziga hosifoda vosita va usullariga ega bo'lib ular bir- birlaridan aksariyat hollarda sezilarli darajada farq qilishlari tufayli tarjimon o'z e'tiborini mazkur vosita va usllarini moddiy tiklashga harakat qilishdan ko'ra ular vositasida ifoda etiladigan fikrni joziba va ta'sirchanlikni zaruriy yo'nalishda qayta yaratishga qaratmog'i lozim.

Badiiy nutq tarkibida qo'llanilgan hissiy-ta'sirchan lisoniy vositalar tizimi asarning umumiy estetik xususiyatini vujudga keltirganini holda, muallifning badiiy-g'oyaviy maqsadini ro'yabga chiqaradi. Badiiy asar tarkibida og'zaki (asosan dialogik) nutq namunalarini namoyish etadigan bunday lisoniy vositalar so'zlovchi- ning atrofidagi voqea-xodisalariga nisbatan ham ijobiy, ham salbiy munosabatini ifoda etadi. Mazkur munosabatlar do'stona, tahsinomus tarixda nomoyon bo'lishi ham xazilonomus, kinoyali, iltifotsiz shaklda ko'zga tashlanishi ham, tahqiromuz, haqoratomuz ohang ham kasb etishi mumkin.

Badiiy yodgorlikning umumiy hissiy-ta'sirchan ohangini tarjimada to'la to'kis qayta yaratish usuliyati sana'tkordan tarjima tilida asliyatdan qo'llanigan turli- tuman hissiy-ta'sirchan lisoniy birliklar ma'no va uslubiy vazifalarini aks

ettiradigan muqobil ifoda vositalari qidirib tipishni, buning uchun, birinchi navbatda qiyoslanayotgan tillar sinonimik boyliklarini semantic uslubiy jihatdan ilmiy–qiyosiy tadqiq qilib, ular orasidagi muvofiqlik va o'zgachalik holatlarni muayyan etishni talab qiladi. Til zahiralarning imkoniyatlaridan unumli foydalanmasdan sinonimik qatorni vujudga lisoniy vositalarini umumiy, hukumron a'zolariga murohjaat qilish tarjima tilining uslubiy rang-barangligini, obrazli hususiyatini, hissiy–ta'sirchan ohangini soddalashtirib, nursiz holga keltirib qo'yadi.

Lisoniy vositalarning obrazlilik hamda hissiy–ta'sirchanligi odatda ularning uslubiy betaraf sinonimlari negizida nomoyon bo'ladi. Binobarin, tarjima tilida vazifador lisoniy vositalar tanlash o'rniga til birliklarining uslubiy betaraf, umumiy ma'nolariga murojaat qilish matinni zaruriy uslubiy betaraf, rang–baranglikda mahrum etadi. Demak, tarjimon hech qachon lisoniy vositalarning moddiy–mantiqiy ma'nolari bilan kifoyalanmasligi, asliyat uslubiy vazifasini ro'yobga chiqarish uchun uning keyingi mazmuniy qatlamlariga nazar tashlashi lozim. Masalan, T. Drayzerning "Bahtiqaro Kerri" romanni boshlanishida qahramon Kerrini Chikagoga yo'l olganiga va uni poyezdga chiqishini "poyezdga mindi" so'zi bilan tarjima qilgan. Tarjimon "*Chiqdi*" so'zini o'rniga uning ma'nosini obrazli tarzda salbiy ohangda ifoda etadigan "*mindi*" so'zini qo'llaydi. Bu vaziyatda tarjimon obrazli lisoniy vosita tanlashda biroz chalg'igan ko'rinadi. Sababi "minmoq" so'zi voqeani hikoya qilib beruvchi tomonidan istifoda etilyapti. Bu avtorning so'zi. Obrazli vositalar odatda asar personajlari tomonidan ishlatiladi.

*Karolina Meeber kunduzi Chikagoga yo'lo olgan poyezdga minganida qo'lida sun'iy timsoh terili arzonigina, mo'jaz chamandonchadan bo'lak hech vaqo yo'q edi.*⁴⁵

Uslubiy jihatdan betaraf erkin-mantiqiy ma'noli lisoniy vositalar ayrim matniy holatlarda personajlarning muayyan narsa yoki voqea-hodisaga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatini ifoda etishda alohida ohang va urg'u bilan talaffuz etiladiki, natijada lisoniy vosita his–xayajon ma'no belgisi kasb etadi. Bunday

⁴⁵ "Baxri qaro Kerri" b1

paytlarda tarjima tiliga lug'aviy ekvivalenti yordamida emas, balki, nutq jarayonida kasb etgan qo'shimcha ma'no belgilariga kontakstual muqobil lisoniy vositalar tanlash yordamida talqin etiladi. Bundan tashqari, muayyan lisoniy vositalar turli nutqiy holatlarida turlicha uslubiy ta'sirchanlikni kasb etishi mumkin.

Binobarin, uslubiy vazifasi ko'zga tashlanib turgan hissiy-ta'sirchan birlik kontekst taqozosi bilan o'zbek tiliga moddiy mantiqiy ma'noga ega bo'lgan lisoniy vositalar orqali o'grilishi yoki, aksincha, an'anaviy uslubiy betaraf birlik badiiy kontekst tarkibida faollashgani hollarda hissiy ta'sirchanlik alomati kasb etib, uslubiy hususiyatli lisoniy vositalar yordamida tarjima qilinishi mumkin. Bunday hollarda ikki til birliklari ham odatda hissiy-ta'sirchanlik kasb etadi. Ushbu mazmuniy xususiyat bir tilda an'anaviy ko'rinishga ega bo'lsa, ikkinchisida tegishli tarzda bunyod etilgan kontekst yordamida nomoyon bo'ladi. Zero, badiiy kontekst tarkibida deyarli har qanday an'anaviy, uslubiy betaraf til vositasi alohida nutqiy vaziyatlarda so'zlovchining istak va maqsadi asosida uslubiy mazmun kasb etishi mumkin.

Obrazli hamda hissiy-ta'sirchan ma'nolari so'zlovchining ichki holatini ifoda etadigan lisoniy vositalar guruhi hususiyatlarining tarjimda tiklanishi masalasi amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Kuchli hayajon ta'sir turdagi personaj nuqtada turli tuman hissiy-ta'sirchan ma'no belgilarini ifoda etuvchi bunday lisoniy vositalar ko'proq qo'pollik, dag'allik ohangiga ega bo'lib, nutqda asosin suhbatdoshni haqoratlash, kamsitish, uning hatti-xarakatlariga nisbatan norozilik bildirish kabi holatlarda qo'llaniladi. Birliklarning hissiy-ta'sirchanlik ma'nolari aslida moddiy mantiqiy semantikasi asosida hosil qilinganligiga qaramasdan, lug'aviy-mantiqiy va matniiy ma'nolari orasidagi mazmuniiy bog'lanish deyarli ko'zga tashlanmaydi. Bunday paytda hissiy-ta'sirchanlik predmetlarning shakl, vazifa va hususiyatlik asosida emas, balki insonning o'sha predmet va voqea hodisaga nisbatan salbiy munosabati vujudga keladi.

Bilmagan harakat tasvirini yaratuvchi mubolag'ani o'zida mujassam etilishi vazifaviy uyg'unlikni vujudga keltiradi. Misol uchun T.Drayzer asaridagi Kerrining his-tuyg'usini ifoda etadigan so'zlarini olsak.

*A gush of tears at her other's farewell kiss, where her father worked by the day, a pathetic sigh as the familiar green environs of the village passed in review and the threads which bound her so lightly to girlhood and home were irretrievably broken.*⁴⁶

Onasi so'ngi bor o'pganida uning ko'zlaridan yoshi tirqiradi, poyezda otasi mardikorchilik qiladigan tegirmon yonodan o'tganida tomog'iga nimadir tiqildi, shaharning tanish yam - yashil chekkalari lipilab, orqada qolib uni ota uyi bilan bo'shroq bog'lab turrigan rishta manguga uzilganda ko'ksidan bir xo'rsiniq otilib chiqdi.

Bu yerda yozuvchi Kerrining uyidan uzoqlashgan bir qizning his–tuyg'ularini ochib bergan. Tilda odatda salbiy his–hayajon ifodasi uchun qo'llaniladigan ayrim lisoniy vositalar nutqda (badiiy matn tarkibida) ijobiy hissiy-ta'sirchanlik belgisi kasb etishi mumkin. So'zlovchining obyektga nisbat munosabatiga qarab, ya'ni konteks talabiga ko'ra mazkur so'zlar, personajlar nutqida ijobiy ta'sirchanlik yaratish uchun ham qo'llanishi ham mumkinki, ularning vazifasi ham, darvoqea, mazkur tillar uchun an'anaviy hisoblanadi. Yana tarjimon man bu yerida adashgan ya'ni kitobning aslida “village” deb bergan bo'lsa, tarjimon shu so'zni “shaxar” deb bergan. Aslida asrda nina qo'yilgan bo'lsa shu so'zni asl tarjimasini qo'yish kerak.

Ko'pkina tillarda his–xayajon ifodasi qator hollarda moddiy–mantiqiy ma'noli, uslubiy betaraf so'zlariga subyektiv baho suffikslari qo'shish yo'li bilan hosil qiladi. Baho yaratuvchi qo'shimchali so'zlar kitobxon hissiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi samarali vosita sifatida nutqiy vaziyat tavsifini yanada oydinlashtiradi, ruhiy tasvir quvvatini yana ham oshiradi. Og'zaki nutq tarkibida ular personajlarning hayajonli holatini tasvirlovchi vosita sifatida muloqatga samimiy, yoqimli ohang baxsh etgan holda, nutqiy ta'svir yaratish uchun xizmat qilish ham mumkin. Badiiy matn tarkibida hissiy–ta'sirchanlik ohangini yuzaga keltirish uchun qo'llaniladigan inglizcha “a devil”, ruscha “chyo'rt” so'zlari uslubiy vazifalarini tarjimada qayta yaratilishi masalasi muhim amaliy va nazariy

⁴⁶ “Sister cerrie”p1

kasb etadi. Ushbu lisoniy vositalar og'zaki nutq tarkibida moddiy-mantiqiy semantikasini tark etib, salbiy ta'sirchanlikni yuzaga keltirish uchun qo'llanilar ekanlar, ularning bu vazifasi mazkur ma'noni yaratish uchun foydalaniladigan predmet (devil-chyo'rt)ga nisbatan xalq orasida hukm surgan salbiy munosabatga asoslanadi. Ular asosan personajlar nutqida qo'llanilib, insonning asabiy, hayajonli, g'azabli hayajonni aks ettirgan holda, personajning obyektga bo'lgan munosabatiningina (ko'proq salbiy, goho ijobiy) emas, balki turli tuman his-tuyg'ular ifodasini ham anglatadi. Bu so'zlarning muallif bayonida qo'llanilishi uning o'z personaji hamda tasvirlanayotgan voqe-hodisalarga bahosini hayajonli ifoda etadi. ⁴⁷“A devil”, “chyo'rt”, so'zlari vazifalarini ularning leksik ekvivalentlari bo'lmish o'zbekcha “shayton” so'zi kamdan-kam o'tashlari tufayli mazkur so'zlar o'zbekchaga qator an'anaviy muqobil lisoniy vositalar hamda kontekstual muvofiq birliklar yordida tarjima qilinadi.

Qator hollarda esa muayyan fikrning obrazli ifodasi uchun asliyat va tarjima tillarida turli jonivorlar nomlari qo'llaniladi. O'tgan asrning o'rtalarida Amerika kino ustalari tomonidan suratga olinib, jaxon kinoekranlarida kelgan namoyish etilga “Jungli” nomli film qahramoni ayol kishi o'rmonda topib olgan bag'riga bosib “you are my frog” degan ekan, bu bolani also baqa kabi badbashara mahluqga o'xshatmagan balki, uni o'zbekcha “qo'zichog'im” kabi so'z yaratish mumkin bo'lgan mehr- muhabbat tuyg'usi bilan suyib erkalagan edi.

Shirinsuhanlik ohangi boshqa tillardagi singari o'zbek tilida yana turli – tuman lisoniy vositalar, chunonchi, “chirog'im” “erkatoyim”, “azizam” kabi hissiy-ta'sirchan so'zlar hamda qator birqator so'z brikmalar yordamida yaratiladi. Bunday sinonimik vositalar tarjimada har doim bir-birlarini almashtiravermasdan ayrim matniy holatlarda ixtisoslashgan holda qo'llaniladi. Hissiy ta'sirchanlik goho sevib iste'mol qilinadigan taom turlari, qadrlanadigan narsa va buyumlar nomlari yordamida vujudga keltiriladi. Bunday lisoniy vositalar sifatida inglizlar ko'proq “honey” ruslar “moy sladkiy”, o'zbeklar “asalim, shakarim” kabi birliklardan

⁴⁷ Q. Musayev. Toshkent nasgriyoti.

foydalanadilarki, tarjimada har qaysi til an'anasining hisobiga olinishi vazifaviy uyg'unlikni vujudga keltiradi.

Asliyatda foydalanilgan obrazli ifoda qiyoslanayotgan tilda o'zining mazmuniy–uslubiy monand ekvivalenti bo'lmasligi mumkin. Tarjima tilidagi bunday uslubiy bo'shliq ko'pincha nutqiy vaziyat yordamida to'ldiriladi. Nutqiy vaziyat uslubiy betaraf lisoniy vosita ma'nosini personaj lafzida faollashtirib qiyoslanayotgan tildagi obrazli lisoniy vosita darajasiga yetkazadi, natijada ikki til birliklari bir–biriga kontekstual monandlik kasb etadi. Ikkinchi tilda tarjima jarayonini ta'minlaydigan muvofiq obrazli vosita tanlash mumkin. Ammo bunday zo'rma–zo'rlikga ko'pincha nutqiy an'ananing buzilishiga olib keladi.

XULOSA

Tarjima millatlar aro muloqotning eng muhim ko'rinishi. Asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima, va boshqa turlarga ajratiladi. Asl nusxani aks ettirish tarziga ko'ra tafsil, tadbil, sharh kabi ko'rinishlarga ham ega bo'lishi mumkin. Tarjima qadimgi davrlarda, turli qabilalarga mansub kishilar orasidagi o'zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan.

Faoliyatlarining turiga ko'ra tarjimonlar og'zaki va yozma tarjimonlarga bo'linadi. Tarjima turlari bir-biridan kuchli farq qiluvchi sohalar bo'lib, SHarqiy Yevropa tillarida ikkita har xil kasb sifatida, misol uchun inglizlarda og'zaki tarjimon **inter'reter**, yozma tarjimon esa **translator** deb ko'rsatiladi.

Frazeologizmning asosiy vazifalari yoki masalalari: frazeologik tarkibning izchilligini aniklash va shu munosabat bilan frazeologizmning belgi(lik) xususiyatini o'rganish; frazeologizmlar omonimiyasi, sinonimiyasi, antonimiyasi, 'olisemiyasi va variantdorligini tavsiflash; frazeologizmlar tarkibida qo'llanuvchi so'zlar va ularga xos ma'nolarning o'ziga xos xususiyatlarini aniklash; frazeologizmlarning so'z turkumlari bilan o'zaro munosabatlarini oydinlashtirish; ularning sintaktik rolini aniklash; frazeologik birliklar tarkibida so'zlarning yangi ma'nolari hosil bo'lishini o'rganish va b. F. frazeologik birliklarni ajratish

‘rinsi’larini, ularni o’rganish, tasniflash va lug’atlarda tavsiflash metodlarini ishlab chiqadi. F.da ishlab chiqilgan o’ziga xos, xilmaxil metodlar asosida tilning frazeologik tarkibi turlicha: struktursemantik, grammatik, vazifaviyuslubiy asoslarga kura tasnif etiladi. Struktursemantik tasnif ‘rinsi’i asosiy hisoblanadi.

Angliya va AQSHda frazeologiya masalalarida (maqol, idiomalar) asosan semantika va grammatikaga oid tadqiqotlarda, shuningdek, frazeologik lug’atlarning so’z boshida uchraydi. So’z birikmalarining idiomatik tuzilishiga oid bir qator maqolalar mavjud. Maqollar borasida esa aksincha, ularga bag’ishlangan ilmiy ishlar talaygina. Bu sohada hatto maxsus jurnal «‘roverbium» (1965 – 1975 yy.) nashr etilgan. Ushbu jurnal cho’ etilishining sababi, ‘aremiologiyaning (maqollarni o’rganuvchi soha) fol’klyor – xalq og’zaki ijodining tarkibiy qismi nuqtai nazaridan qaralganligidadir.

“Tazod” so’zi “zid qo’yish”, “qarshilantirish” ma’nolarini ifodalaydi. Bu sanhat baytda ma’no jihatidan o’zaro zid, qarama-qarshi bo’lgan so’zlarni qo’llab, tahsirchan badiiy timsollar, lavhalar yaratishni nazarda tutadi”.

Tazod ingliz tilida antithesis – (antiteza) nomi bilan yuritiladi. “Antiteza stilistik uslullardan biri bo’lib, qarama-qarshi ma’nolar asosiga quriladi va voqelikning yorqin va timsolli bo’lishini tahminlaydi. Ingliz tilida antitezaning ikki turi mavjud bo’lib, ular mantiqiy antiteza va lug’aviy antonimlardir”. Lug’aviy antiteza antonim so’zlarning lug’aviy ma’nosiga asoslanadi:

“They speak like saint and act like devils.” (*Ular farishta kabi gapiradilar va shayton kabi harakat qiladilar*)

Mantiqiy antiteza bevosita kontekst tabiatidan kelib chiqib yaratiladi. Unda ma’nosi bir-biriga zid bo’lmagan so’z va iboralar ishlatilib matndagi voqelik tazodni yuzaga keltiradi:

We are *young*, friend, like *the flowers*,
You are *old*, friend, like *the tree*,
What concern have you with ours?
You are *dying*, we’re *to be*
It is very true, I’m *dying*,

You are *roses* still in bud...(*J.Mansfield*)

Ideoma mahlum tilga xos bo'lib, unga o'zlashib ketgan, boshqa tilga so'zmaso'z tarjima qilib bo'lmaydigan nutq oborotidir.

Ma'nosi ayni ibora tarkibidagi so'zlarning mazmunidan kelib chiqmaydigan iboraga ideomatik ibora deyiladi.

“Ma'nosi o'z tarkibidagi so'zlarning ma'nolariga bog'liq bo'lmagan, umumiy–yaxlit holda ma'no beruvchi ixcham obraz ideomadir.”

Ko'plab frazeologizmlar-ideomalar boshqa tildagi, ayniqsa qardosh bo'lmagan tillardan tarjima qilish, murakkab ish va shu bilan birgalikda hammani ham birday rozi qilib bo'lmaydigan soha. Lekin tarjimani tugatganingizdan keyin esa bir o'z bahringiz ochiladi.

Mumtoz she'riyatimizda qofiya va radif badiiyatning asosiy qirralaridan biri sanalib kelgan. Ijodkorning salohiyati she'rlarda qo'llanilgan qofiyalarning g'oyaviy mohiyatini, timsollar qiyofasini ochishdagi ahamiyati, qofiya uchun tanlangan so'zlarning ma'naviy teranligi, ohangdorligi, jilo va jozibasi bilan ham belgilangan. Qofiyaning xilm-xil turlari va san'atlaridan vazn va qofiya munosabatlaridan o'rinli foydalanish shoir mahoratining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham har qaysi ijodkor qofiya va radif ilmini diqqat bilan o'rgangan va ta'lim olib kamol yo'gan.

Qofiyalar she'riy asar musiqiyligi, jozibadorligini ta'minlashning asosiy va munhim omillaridan biri hisoblanadi. Qofiyadagi so'zlar tarkibidagi har qaysi tovush, misra, bayt, bandga alohida jilo va ta'sirchanlik bag'ishlaydi. Qofiyaning she'riy asarda tutgan o'rni va ahamiyatini to'laroq, mufassalroq anglab yetish uchun qofiya ilmi asoslari: qofiyaning tuzilishi va turlari, she'riy janrlarning qofiya xususiyatlari, qofiya san'ati va qofiya xususiyatlari, xatolari vazn va qofiya, radif va qofiya, qofiya munosabati mazmuni va mohiyatini atroflicha bilish zarur.

Ilmiy adabiyotda xalqlar turmush tushunchalarini ifoda etadigan leksik birliklarni qaysi paytlarda tarjima amaliyotining qanday sinalgan usullari vositasida talqin etish lozimligi haqida yagona fikr uchramaydi. Tarjimaning ijodiy jarayonligi tufayli, bunday fikrning uchrashi ham goho amri mahol. Biroq bayon

etilgan ilmiy-tanqidiy fikr-mulohazalar tarjimonning muayyan holatda qanday yo'l tutishi lozimligi haqidagi tasavvurini boyitadi, uning amalda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan turli-tuman tasodifiy tugunlarni echishga ko'maklashadi, unda amaliy mushkulotlarni mohirona engish malakasi hosil qilinadi.

Bunday, kishilar turmush tushunchalarini anglatadigan xos so'zlarni tarjimada adekvat talqin etish asl nusxa milliy xususiyatini kitobxonga to'la-to'kis etkazib berishdek murakkab muammoning eng mas'uliyatli va o'ta mushkul masalalaridan hisoblanadi. Zero, bunday holda tarjimon oldida o'z xalqi uchun notanish, binobarin, nomlari ham tilda mavjud bo'lmagan tushuncha, narsa va hodisalarni tarjima tili sohiblariga to'la anglatish vazifasi ko'ndalang bo'lib turibdi.

O'zbek tilida odam tana a'zolarining nomlari juda ko'p hollarda turli ma'no anglatuvchi iboralar tarkibida asosiy unsur vazifasida keladi. Masalan, "bosh" so'zi quyidagi hollarda asosiy obraz yaratuvchi so'z sifatida birikmalar tarkibida keladi: bosh chayqamoq, bosh tortmoq, bosh qo'shmoq, boshi ochiq, boshidan oyoq, boshga ko'tarmoq, boshi bilan sho'ng'imoq, boshi aylanmoq, boshini aylantirmoq, boshiga etmoq, boshiga urmoq, boshga qilich kelsa ham, boshida danak (yong'oq) chaqmoq, boshidan oshib yotmoq, boshidan soqit qilmoq, boshi yostiqqa etmoq, boshi ko'kda (osmonda), boshini ikkita qilmoq, boshini bir joyga qovushtirmoq, boshini biriktirmoq, boshini olib ketmoq, bosh ko'tarmay, bosh ko'tarmoq, bosh og'rig'i, bosh(i) qotmoq, boshi oqqan (tomonga), bosh suqmoq, bosh egmoq. So'zning ingliz tilidagi muqobil ekvivalenti bo'lmish "head" so'zi ham juda ko'p vaziyatlarda turli-tuman vazifalarda keladi. O'zbekcha "bosh" va inglizcha "head" co'zlarinig turli iboralar tarkibidagi vazifalari bir biridan tubdan farq qiladi. Fikrimizni isboti sifatida quyidagi misollarni ko'rib chiqamiz.

HEAD – BOSH - to bare one's head — bosh kiyimni echmoq, to bow one's head — bosh egmoq, to drop, hang, lower one's head — erga qaramoq, to lift, raise one's head — boshni ko'tarmoq (tepaga qarash maqsadida), to move one's head — bosh chayqamoq, to nod one's head — bosh siltamoq, to shake one's head — e'tiroz bildirmoq, to toss one's head — boshini shartta burmoq, to hold one's

head high — faxrlanmoq, from head to foot/heel, head to foot — boshdan oyoq, taller by a head — boshdan baland, a good head, strong head — aylanmaydigan bosh (ichib mast bo'lmaydigan), a good head for heights — balandlikda aylanib ketmaydigan bosh, a bad head for heights — balandlikda aylanib ketadigan bosh, win by a head b) bosh og'rig'i (asosan zarba va alkagol ta'sirida) I get one of those blinding heads. — U menya etot chertov pristup golovnoy boli. She was lying down with a head. — Ona lejala s golovnoy bol'yu. 2) a) aql, intellekt, aqliy qobiliyat (layoqat), to use one's head — fahmi etmoq, kallasi ishlamoq, tushunmoq; to cram, fill, stuff smb.'s head (with nonsense) — biror kimning boshini maydachuydalar bilan to'ldirmoq, accounts which he kept in his head — xisob-kitoblarni miyada saqlamoq; to have a (good) head (up)on one's shoulders — elkada aqilli boshni ko'tarib yurmoq; to have an old head on young shoulders — sog'lom fikrlovchi; It is not your fault that you have no head for politics. (G. B. Shaw) — Ne vasha vina, chto vo` sovershenno ne godites` dlya politiki. Siyosatni tushunmasligingiz aybingiz emas. to keep a level head, keep one's head — tinchlikni saqlamoq; to lose one's head — tinchini yo'qotmoq, cool head, level head — sovuqqon, b) bosh – hayot uchun muhim tana a'zosi sifatida; Proofs enough against this scoundrel, Fritz, to cost him his head. — Protiv etogo negodyaya, Frits, dostatochno faktov, chtobo` eto stoilo emu golovo`. 3) a) bosh tasviri - a head of Titian by his own hand — izobrajenie golovo` Titsiana, nabrosannoe im samim b) tanganing old tarafi (bosh tasviri tushirilgan), head(s) or tail(s) — chikka pikka (tangani otganda) Heads I win, (and) tails you lose. — Har qanday vaziyatda men yutaman.; Har qanday vaziyatdja sen yutqazasan. v) yoki pochta markasi (monarx rasmi tushirilgan) 4) soch (boshdagi) I comb'd his comely head. 5) no'xta, hayvon boshiga maxkamlanadigan tasma Syn: headstall 6) kiyik shoxi 7) a) odam Those wise heads came to the conclusion that there was hope. — O'sha donishlar umid bor degan hulosaga kelishdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.- 442 b.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009.- 56 b.
3. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontse'tsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010.- 56 b.
4. Karimov I.A. O'zbekiston Res'ublikasi mustaqilligining 19 yilliga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zi, "O'zbekiston ovozi" gazetasi, 2010 yil 1-sentyabr'.
5. Karimov I.A. "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom – taraqqiyotimizning muhim omilidir", "Ishonch" gazetasi, 2010 yil 8 dekabar'.
6. Karimov I.A. "Barcha reja va das turlarimiz vatanimiz taraqqi yotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi", "Xalq so'zi" gazetasi, 2011 yil 22 yanvar.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: "O'zbekiston", 1998. - 35 b.
8. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: "O'zbekiston", 2008.
9. Arat.R.R. Kutadgu Bilig II Çeviri. Turk Tarih Kurumu Basımevı. Ankara, 1994. 6-baskı.
- 10.Cagatay S, Kutadgu Bilig'de Odgurmish'in kisiligi (In Tuer dili arastirmalari yilligi, Belleten, 1967, S.39-49).
- 11.Denkoff. R. Yusuf Khass Hajib, Wisdom of Royal Glory (Kutadgu Bilig): A Turko-Islamic Mirror for 'rinces, University of Chicago press, 1983.

12. Dankoff R. Qarakhanid Literature and the Beginnings of Turco-Islamic Culture. In: Central Asian Monuments (ed. Hasan B. Paksoy, Istanbul, 1992), 73-80.
13. Dankoff R. Yusuf Khas Hadjib. In: Encyclo'edia of Islam, New Edition. Vol. XI (2001), 359-60.
14. Dolimov SH.Z. Tarjima sanhati muammolari. – Toshkent, 2009. – 63 b.
15. Brandes M. Provotorov V.I. Predpervodcheskiy analiz teksta. – Moskva, 2001. – 214 s.
16. Bushuy Tatyana. Perevod frazeologiy angliyskogo yazqka na russkiy. – Samarkand, 2005. – 37 b.
17. Kazakova T.A. 'raktikum 'o xudojestvennomu Perevodu. – Sankt-'eterburg, 2003. – 305 s.
18. Komissarov V.N. Obo'aya teoriya Perevoda. – Moskva, 1978. – Lanchikov V. Mir 'erevoda. Trudnosti perevoda v primerax. – Moskva, 1999. – 63 s.
19. Latqshev L.K. Texnologiya perevoda. – Moskva, 2000. – 278 s.
20. Levitskaya T.R., Fiterman A.M. Teoriya i praktika 'erevoda s angliyskogo na russkiy. – Moskva, 1963. – 123 s.
21. Musaev Q. Tarjima nazariyasi. – Toshkent, 2006. – 350 b.
22. Nelyubin L.L. Tolkovqy 'erevodcheskiy slovarg'. – Moskva, 2003. – 318 s.
23. Parshin A. Teoriya i praktika perevoda. – Moskva, 2000. – 143 s.
24. Terexova M. Teoriya i praktika perevoda. – Orenburg, 2004. – 163 s.
25. Bassnett Susan. Translation Studies. – Routledge, London and New York. 2002. – 188 p.
26. Schaffner Ch. Translation Research and Interpreting Research. – Multilingual Matters, 2000. – 135 p.
27. Babkin A. M., Russkaya frazeologiya, razvitiye i istochniki. L., 1970;
28. Vinogradov V. V., Osnovnie ponyatiya russkoy frazeologii kak lingvisticheskoy dissi'lini, v yego knige: Izbrannie trudi, t. 3.
29. Leksikologiya i leksikografiya, M., 1977;

30. Bibliograficheskiy ukazatel literaturi 'o vo'rosam frazeologii, vi'. 3—4, Samarkand, 1974—76;
31. Rahmatullayev Sh ., O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari, T., 1966;
32. Rahmatullayev Sh ., O'zbektilining izohli frazeologik lugati, T., 1978.
33. Arnold I.V. Leksikologiya sovremennogo angliyskogo yazqka. – Moskva, 1986. – 283 s.
34. Barxudarov L. S. Yazqk i perevod. – Moskva, 1985, - 176 s.
35. Bushuy Tatg'yana. perevod frazeologiy angliyskogo yazqka na ruskiy. – Samarkand, 2005. – 37 b.
36. Galg'perin I. R. Ocherki 'o stilistike angliyskogo yazqka. - Moskva, 1958. – 258 s.
37. Ginzburg R.S. Leksikologiya angliyskogo yazqka. – Moskva, 1979. – 269 s.
38. Dolimov SH.Z. Tarjima sanhati muammolari. – Toshkent, 2009. – 63 b.
39. Kazakova T. A. As'ektq teorii psg'mennogo 'erevoda. – Sverdlovsk, 1988, - 134 c.
40. Komissarov V. N. Teoriya perevoda. – Moskva, 1990, - 110 s.
41. Komissarov V.N. Obo'aya teoriya 'erevoda. – Moskva, 1978. – 132 s.
42. Komissarov V. N., Koralllov A. X. 'raktikum po perevodu s angliyskogo na ruskiy. – Moskva, 1991, - 231 s.
43. Lanchikov V. Mir 'erevoda. Trudnosti perevoda v primerax. – Moskva, 1999. – 63 s.
44. Musaev Q. Tarjima nazariyasi. – Toshkent, 2006. – 350 b.
45. Muminov O. Lexicology of the English Language. – Toshkent, 2006. – 215 b.
46. Nelyubin L.L. Tolkovqy perevodcheskiy slovar. – Moskva, 2003. – 318 s.
47. 'arshin A. Teoriya i praktika perevoda. – Moskva, 2000. – 143 s.
48. Salomov G.S. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent, 1989, - 219 b.
49. Silman T. I. problem sintaksicheskoy stilistiki. – Leningrad, 1967. – 213 s.
50. Smirnitskiy A.I. Leksikologiya angliyskogo yazqka. – Moskva, 1986. – 256 s.
51. Terexova M. Teoriya i praktika 'erevoda. – Orenburg, 2004. – 163 s.

52. Bassnett Susan. *Translation Studies*. – Routledge, London and New York. 2002. – 188 p.
53. Schaffner Ch. *Translation Research and Interpreting Research*. – *Multilingual Matters*, 2000. – 135 p.
54. Simpson P. *Stylistics*. – Routledge. 2004. – 262 p.
55. Bailey, Richard W. and Burton, Dolores M. *English Stylistics; A Bibliography*.
56. Bailey, Richard W. *Language to Literature: A Rejoinder*. "Style", 1997, vol. I, No 3.
57. Bailey Richard W. *Current Trends in the Analysis of Style*. "Style", 1988, vol. I, No 1.
58. Beardsley, Monroe C., *Style: Semantic and Phonetic*. "Aesthetics". N. Y., 1958
59. Beardsley, Monroe C., *The Language of Literature*. In "Essays on the Language of Literature". Ed. by S. Chatman and S. Levin. Boston, 1987.
60. Bloomfield, Morton W. *The Syntactogram in poetry*. From *Semantics to Syntactics*. In "To Honor Roman Jakobson". The Hague, 1977.
61. Bell, Roger, *Translation and Translating*. Longman., 1991, - 241 p.
62. Bosworth, Joseph - Toller, T. Northcote. *An Anglo-Saxon Dictionary*. Oxford: University press. 1976, - 176
63. Muminov O. *Lexicology of the English Language*. T. 2006, – 215 p.
64. Newmark, Peter, *A Textbook of Translation*, Prentice Hall., 1988, - 102 p.
65. Nida E. *The Theory and practice of Translation*. – Brill, Leiden, 1982. – 218 p.

INTERNET MANBALARI

1. <http://humanities.uchicago.edu/depts/nelc/faculty/pages/dankoff/index.html>
2. <http://en.wikipedia.org/wiki-Hippocrates>
3. vlib.iue.it/carrie/texts/carrie_books/aksoy-4/2-1.html - 74k
4. <http://humanities.uchicago.edu/depts/nelc/faculty/pages/dankoff/index.html>
5. <http://en.wikipedia.org/wiki-Hippocrates>
6. vlib.iue.it/carrie/texts/carrie_books/aksoy-4/2-1.html - 74k
7. www.wikipedia.org/wiki/%25D0%259C%25D0...

8. [www.'eo'les.ru/science/'hiloso'hy/kas](http://www.eo'les.ru/science/'hiloso'hy/kas)
9. www.textreferat.com/referat-6546-1.html
10. www.britannica.com/EBchecked/to'ic/35
11. www.literature.uz/divan_lugat_kashgari/
12. www.unesco.kz/heritagenet/kz/content/...
13. dic.academic.ru/dic.nsf/es/35363/%25D
14. 'ersones.ru/ person-16095.html
15. Fiction [htt'://www.en.wiki'edia.org/Fiction](http://www.en.wiki'edia.org/Fiction)
16. Fiction [htt'://www.brittanica.com/Fiction](http://www.brittanica.com/Fiction)
17. Literary Translation [htt'://www.translationdirectory.com/articles](http://www.translationdirectory.com/articles)
18. [htt'://www.com'lete-review.com/reviews/translate/landers.htm](http://www.com'lete-review.com/reviews/translate/landers.htm)
19. Literary Translation [htt'://en.wiki'edia.org/wiki/Translation](http://en.wiki'edia.org/wiki/Translation)
20. The World Book Dictionary. Clarence L. Barnhart. Volume One - World Book Inc. 1994. – 500 p.